

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**

**"OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI" KAFEDRASI**

**5A321001– Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash  
texnologiyasi (yog‘-moy mahsulotlari) magistrturada ta`lim olayotgan  
magistrant uchun**

**YOG‘-MOY SANOATIDA QAYD VA NAZORAT  
FANIDAN  
MA’RUZALAR MATNI**

**Qarshi – 2022**

Ma’ruza matnlari to‘plami «OOMT» kafedrasi yig‘ilishida (Bayon № \_\_\_\_ 202 y), Muhandislik texnologiyasi fakulteti Uslubiy komissiya yig‘ilishida (Bayon № \_\_\_\_ 202 y) va Institut Uslubiy Kengashida (Bayon № \_\_\_\_ 202 y) ko‘rib chiqildi va o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

**Tuzuvchi:**

Axmedov A.N. – “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasi professori v.b.

**Taqrizchilar:**

Suvanova F.U. – QarMII –“Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasi mudiri, t.f.n., prof.  
Jabborov J.B. – Qarshi yog’-ekstraksiya AJ Sifatni va standartlarga rioya etilishini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i bo‘limi boshlig‘i

## Mundarija

	Mavzular nomi	bet
1	<b>1-mavzu.</b> Kirish. O'simlik yog'larini ishlab chiqarish hisob-kitobini yuritish. Paxta chigitlarini yetkazib berishni o'zaro solishtirish	
2	<b>2-mavzu.</b> Boshqa xil o'simlik urug'larini qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari: shirkat, dehqon-fermer xo'jaliklari va shaxsiy topshiruvchilardan sotib olish yo'li bilan qabul qilish	
3	<b>3-mavzu.</b> Chet eldan keltirilgan yog'li xom-ashyolarni qabul qilish. Omborda yog'li urug'larni hisob-kitobini yuritish. Urug'larni ombordan ishlab chiqarishga berishdagi hisob-kitob	
4	<b>4-mavzu.</b> Chigit omborini tozalash. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni hisob-kitobini yuritish. Chigit shulxasi (luzga) hisob-kitobi.	
5	<b>5-mavzu.</b> Shrot (kunjara) hisob-kitobini yuritish	
6	<b>6-mavzu.</b> Rafinasiyalanmagan yog', yog' xom-ashyosi, soda mahsulotlari va boshqalar hisobini yuritish	
7	<b>7-mavzu.</b> Ishlab chiqarish hisobotlarini tuzish va taqdim etish. Inventarlashni amalga oshirish xususiyatlari	
8	<b>8-mavzu.</b> Baklarni tozalash dalolatnomasini rasmiylashtirish	
9	<b>9-mavzu.</b> Yog'larni gidratlashni hisobga olish. Yog' va moylarni rafinasiyalashni hisobga olish	
10	<b>10-mavzu.</b> Yog'larni qadoqlash bo'yicha ishlab chiqarish hisoboti	
11	<b>11-mavzu.</b> Soapstok ishlab chiqarish va qayta ishlashni hisobga olish. Paxta salat yog'i va palmitin ishlab chiqarishni hisobga olish.	
12	<b>12-mavzu.</b> Gidrogenizasiyalangan yog' ishlab chiqarishning hisob-kitobini yuritish.	
13	<b>13-mavzu.</b> Margarin va mayonez ishlab chiqarishni hisobga olish	
14	<b>14-mavzu.</b> Yog' kislotalari, gliserin va xo'jalik va atir sovunlari ishlab chiqarishni hisob-kitobini yuritish. Qayta ishlab berish uchun olingan xom-ashyoni hisob-kitobi	

## **1-mavzu. Kirish. O’simlik yog’larini ishlab chiqarish hisob-kitobini yuritish. Yog’li urug’larni qabul qilish hisob-kitobini yuritish**

**Reja.** Fanning maqsadi va vazifalari. Qayd va hisobotning ishlab chiqarishdagi ahamiyati. Yog’li urug’larni qabul qilish hisob-kitobini yuritish. Barcha birlamchi hujjatlar turlari

Bugungi kunda ishlab chiqarish sohasida zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borishi bilan birga sanoatda ish yuritish sifati va madaniyatiga bo’lgan talablar ham osib bormoqda. Bozor raqobati sharoitida mahsuldarlikni oshirish avvalo ishlab chiqarishning har bir bo’lagida va yaxlit holda olib boriladigan nazoratni, hisob va hisobotlarni xatoliklarsiz amalga oshirish orqali yo’lga quyiladi. Bunday yondashuv soha mutaxassislaridan o’ziga xos bilim va ko’nikmalarini talab qiladi.

Qayd va hisobotlarni to‘g’ri bajarilishi ishlab chiqarish jarayonini to‘g’ri tashkil etishga yordam beradi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, mahsulotlarni chiqish unumini yaxshilaydi va xom ashyo va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda asoslanmagan yo‘qotishlarning oldini olishga yordam beradi.

Ushbu fan yog’-moy sanoati korxonalarida xom ashyo va yordamchi materiallarni qabul qilish, saqlash, ishlab chiqarishga berish, qayta ishslash va hosil bo’lgan tayyor, yarim tayyor hamda ikkilamchi mahsulotlarni, shuningdek chiqindilarni omborlarga joylash, iste’molchilarga jo‘natish kabi jarayonlarning qayd va hisobotlarini olib borilish haqidagi bilimlarni shakllantirish hamda olingan bilimlarni mustaqil qo’llay olish ko’nikmalarini hosil qilishga yo’naltirilgan.

### **Fanning maqsadi va vazifalari**

Ta’lim maqsadi davr bilan, ijtimoiy hayot bilan uzviy bog‘liq. Ijtimoiy hayotdagagi tub burilishlar, fanning intensiv rivojlanishi, ta’lim modernizatsiyasi, yangi didaktik imkoniyatlar, insonparvarlashtirish shubhasiz ta’lim maqsadini ham tubdan o‘zgartirdi. Ta’lim maqsadining tubdan o‘zgarishi ta’lim mazmunida o‘z ifodasini topadi.

“Yog’-moy sanoatida qayd va hisobot” fanining mazmuniga – yog’-moy sanoati korxonalarida xom ashyo va yordamchi materiallarni qabul qilish, saqlash, ishlab chiqarishga berish, qayta ishslash va hosil bo’lgan tayyor, yarim tayyor hamda ikkilamchi mahsulotlarni, shuningdek chiqindilarni omborlarga joylash, iste’molchilarga jo‘natish kabi jarayonlarning qayd va hisobotlarini olib borilishi haqidagi ma’lumotlar kabi bo‘limlari kiritilgan.

**Fanni o’qitishdan maqsad:** - Davlat ta’lim standartlarida talabaning bilim, ko’nikma va malakalariga qo‘yilgan talablarga muvofiq mehnat bozori talablariga javob beruchi kadrlar tayyorlash yo’lida ta’lim-tarbiya berish, ilm-fan va xom ashyni qayta ishslash texnologiyalari sohasida erishilgan yutuqlarni targ‘ib etish va talabalarda ishlab chiqarish jarayonlarining qayd va hisobotlarini olib borishga oid bilimlarni shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** – talabalarga yog’-moy mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishslash korxonalarida amalga oshiriladigan jarayonlarda qayd va hisobotlarni to‘g’ri bajarilishini o’rgatish va hisob-kitoblarni mustaqil yuritish ko’nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat.

## **Qayd va hisobotning ishlab chiqarishdagi ahamiyati.**

“Yog’larni qayta ishlashda qayd va hisobot” fanini o’rganishdan maqsad, yog’ va moylarni qayta ishlash korxonalarida xomashyo va yordamchi materiallarni qabul qilishdan tortib saqlash, ishlab chiqarishga berish, qayta ishlash va hosil bo’lgan tayyor, yarim tayyor hamda chiqindi mahsulotlarni omborlarga joylab iste’molchilarga jo’natishgacha bo’lgan jarayonlarning qayd va hisobotlarini to’g’ri olib borishni o’rgatadi. Qayd va hisobotlarni to’g’ri bajarilishi yog’-moy korxonalarini bo’yicha nazoratlarni to’g’ri olib borilishiga yordam beradi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, mahsulotlarni chiqish unumini yaxshilaydi va xomashyo va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda yo’qolishini oldini oladi. Mahsulotlar sifatini yaxshilaydi.

Yog’li o’simlik urug’larining birlamchi miqdor-sifat hisobi (keyinchalik – birlamchi hisob) qo’yidagilarni:

a) yog’-moy sanoati korxonalarida xom-ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarning saqlanishini va samarali ishlatilishini nazoratini;

b) yog’li o’simlik urug’larining qabul qilinishi, saqlanishi, qayta ishlanishida, shuningdek ulardan o’simlik yog’i va yog’-moy mahsulotlarini ishlab chiqarishda og’irligi va sifati o’zgarishini aniqlashni;

v) sotuvchi (yetkazib beruvchi)lar va xaridor (qabul qiluvchi)lar o’rtasidagi yog’li o’simlik urug’lari uchun, tizim ichidagi qayta joylashtirishni hisobga olgan holda, hisob-kitoblarning to’g’riligini;

g) yog’li o’simlik urug’lari sifatining yomonlashuvini oldini olishni ta’minlashi zarur.

1. Birlamchi hisobini yuritish korxonaning bosh hisobchisi tomonidan tashkil qilinadi va ishlab chiqarishning ma’lum bo’limi uchun mas’ul bo’lgan shaxs tomonidan olib boriladi.

Barcha birlamchi hujjatlarni joriy qilish va rasmiylashtirish uchun korxona bosh hisobchisi mas’uldir, u birlamchi hisob-kitoblarni yurituvchi shaxslarga doimiy ravishda yo’l-yo’riq ko’rsatib turadi.

Ishlab chiqarish va laboratoriya jurnallarining to’g’ri olib borilishini nazorati bosh muxandis tomonidan amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish hisobotlarida qo’llaniladigan laboratoriya ma’lumotlarining to’g’riligiga korxona laboratoriyasi mudiri (boshlig’i) javobgardir.

2. Hisobini yuritish bo’yicha birlamchi hujjatlarni tuzish tartibi va taqdim etish muddatlari korxona rahbari (boshqarma raisi) buyrug’iga muvofiq jadval bilan tasdiqlanadi. Jadvalda xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni hisob-kitobi bo’yicha hujjatlarni o’z vaqtida, sifatli tuzish va taqdim etishga javobgar shaxslar doirasi belgilanadi.

3. Barcha moddiy-javobgar shaxslar bilan O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq to’liq moddiy javobgarlik to’g’risida shartnomaga tuziladi.

To’liq moddiy javobgarlik to’g’risidagi shartnomalar xodimlar bo’limida saqlanishi shart.

Moddiy – javobgar shaxslarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o’tkazish va ishdan bo’shatish korxona bosh hisobchisi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni qabul qilish va jo’natishda tarozida tortish moddiy javobgar shaxslar (ombor mudiri, tarozibon va boshq.) tomonidan amalga oshiriladi.

Moddiy javobgar shaxslarni almashtirish jarayonida ularni moddiy javobgarligidagi tovar-moddiy boyliklarini hammasi qat’iy og’irligi yoki hisobi va sifati bo’yicha, moddiy boyliklarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini tuzish bilan, qabul qilib olayotgan moddiy javobgar shaxs zimmasiga o’tkaziladi.

Moddiy javobgar shaxslar shaxsan o’zları, shuningdek avtomobil, temir yo’l, avtomat va boshqa tarozilar tarozibonlari tomonidan tortilib qabul qilib olingan yog’li urug’lar, yog’li xomashyo va barcha turdagı mahsulotlarni og’irligi bo’yicha to’liq saqlanishiga javobgardirlar. Shuning uchun tarozibonlar faqatgina moddiy javobgar shaxslarni yozma roziliği bilan ishga tayinlanadilar.

Ishchi va xizmatchilarning birgalikda bajaradigan ishlarni ayrim turlari ya’ni, ularga berilgan moddiy boyliklarni saqlash, jo’natish va ishlab chiqarish jarayonida qo’llash bilan bog’liq ishlarni bajarishda, har bir ishchining moddiy javobgarligini ajratish mumkin bo’lmagan hollarda, ular bilan tuzilgan to’liq moddiy javobgarlik to’g’risidagi shartnoma jamoaviy (brigadali) moddiy javobgarlikka (ombor mudiri, tarozibon, smena omborchisi va h.k.) o’tkazilishi mumkin.

4. Kitoblardagi, laboratoriya va ishlab chiqarish jurnallaridagi, hamda barcha sex va omborxonalardagi hisoblarining birlamchi hujjatlarida yozuvlar siyoh, sharikli ruchka yoki kimyoviy qalamda o’zgartirishsiz va tuzatishlarsiz amalga oshiriladi. Xato qilingan yozuvlar siyohli ruchkalar bilan o’zgartiriladi va tuzatish kirgizgan shaxsni imzosi bilan tasdiqlab qo’yiladi.

5. Sex va omborxonalardagi xomashyo, tayyor mahsulotlarning hisobi olib boriladigan kitoblar varaqqlari raqamlanadi, ipdan o’tkazib tikiladi va bosh hisobchi imzosi va muhr bilan muhrlanadi. Sex va omborlardagi birlamchi miqdor-sifat bo’yicha hisoblar hisoblash mashinalarida olib borilganda, kitob shaklidagi bosmaxona usuli bilan yozilgan blankalar raqamlanadi va birlamchi hisobni olib boradigan hodimga tilxat orqali beriladi. Kunning oxirida hisob-kitob varaqqlari tegishli jiddlarga tikiladi va hisobxona hujjatlarining belgilangan saqlash tartibiga asosan saqlanadi. Laboratoriya va ishlab chiqarishni nazorat qilish jurnallari varaqqlari ham raqamlanadi, ipdan o’tkazib tikiladi va bosh muhandis imzosi va muhr bilan tasdiqlanadi.

6. Jurnallardagi ma’lumotlarning to’g’riliği va vaqtida to’ldirilganligi, shuningdek sex va ombor kartochkalari kitoblaridagi kitobiy qoldiqlar doimiy ravishda hisobxona xodimlari tomonidan, omborlar, sexlar va boshqalardagi hisoblar uchun mas’ul shaxslar ishtirokida tekshirib boriladi. Tekshirish natijalari va kitoblardagi hamma varaqqlarning mavjudligi hamda hisobni yuritish bo'yicha e'tirozlar kitobda qayd qilinadi.

Barcha birlamchi hujjatlar, (yuk xati, buyruq, ishonchnoma va sifat sertifikati) xomashyo, tayyor mahsulotlar va boshqalarni qabul qilish yoki jo’natish vaqtida tuziladi va rasmiylashtiriladi.

7. Yog'-moy korxonalarida birlamchi hisob-kitoblarni yuritish xom ashyo, tayyor mahsulot, materiallar, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish chiqindilarni tarozilarda tortish yo'li bilan olingen ma'lumotlarga asoslanib olib boriladi.

Har oyning birinchi kunida ishlab chiqarish sexlarida xom ashyo, materiallar, tayyor mahsulotlar, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish chiqindilarining qoldiqlarini chigit hisobida inventarlash o'tkaziladi. Inventarlashda xom ashyo va tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarini aniqlash uchun faqatgina oylik hisobotlarni tuzish uchungina qo'llaniladigan hajmiy o'lchash asosida hisoblashga ruxsat beriladi.

8. Yog'-moy korxonalarida xom ashyoning harakati bo'yicha kirim va chiqim hujjatlarini tuzish uchun manba bo'lib tortilmalar kitobi xizmat qiladi. Bu kitoblarni to'g'ri yuritilishi bo'yicha javobgarlik sex va bo'lim boshliqlari, ombor mudirlari va boshqa moddiy javobgar shaxslar zimmasiga yuklatilishi kerak.

Hisobxona doimiy ravishda, lekin har o'n kunlikda kamida bir marotaba kitoblarning to'g'ri yuritilishini va undagi yozuvlarni to'g'rilib tekshiradi.

9. Omborlardan sexlarga, sexlardan omborlarga va sexlardan sexlarga xomashyo, materiallar va mahsulotlarni berishda tarozida tortish, tekshirilgan, avtomatik yoki boshqa oddiy tarozilarda amalga oshiriladi.

Korxonada tarozi-o'lchov xo'jaligini tekshirish jadvali tuzilgan bo'lishi kerak.

Avtomatik tarozilarni tekshirish, shu markali tarozilar uchun me'yoriy-texnik hujjatlarda ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshiriladi. Avtomatik tarozilarni tekshirish natijalari tortilmalar kitobida belgilanadi.

Tarozida tortishning to'g'rilibini nazorat qilish uchun davriy ravishda qabul qilinayotgan va jo'natilayotgan yuklarni nazorat qayta tortishlari o'tkazilishi kerak.

Tarozi- o'lchov asboblarida ishlashga ruxsat etilgan shaxslar, maxsus yo'l-yo'riq ko'rsatishdan o'tishlari kerak.

10. Xomashyo va mahsulotni saqlash uchun mo'ljallangan sig'imlar (baklar, sisternalar va boshq.) kalibrangan bo'lishi, ularning hajmi esa tashqi devorlarida ko'rsatilgan bo'lishi shart.

18. Yog'li o'simlik urug'larini miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, shuningdek amaldagi standartlar, texnik talablar, yetkazib berishning maxsus shart-sharoitlari, ta'minlovchi va xaridorlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

19. Paxta chigitini yog'-moy korxonalarida qabul qilishdan oldin yog'li urug'lar bilan ta'minlash va yetkazib berishga shartnomaga tuzilgan bo'lishi va unda ta'minlovchi, xaridor va yetkazib beruvchilarning shartnomaga asosidagi majburiyatlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Yog'-moy korxonalari tomonidan texnik paxta chigitni qabul qilib olish miqdor va sifat bo'yicha amaldagi standart va texnik urug'larini sertifikasiya qilish tasdiqlangan tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

20. Paxta zavodidagi urug' turkumlaridan namuna tanlab olish turkum qabul qilish kunida «Sifat» O'M laboranti tomonidan paxta zavodi va yog' ekstraksiya zavodi vakillari ishtirokida amalga oshiriladi. Namunadan 2 kg og'irlikdagi o'rtacha namuna ajratilib, ikki teng qismga bo'linadi – tajriba uchun namuna va namunaning nazorat

qismi. Tajriba uchun namuna sinovdan o'tkaziladi, namunaning nazorat qismi saralash qatnashchilari imzolari bilan urug' laboratoriyasida 15 kun davomida saqlanadi. Paxta zavodi yoki yog' ekstraksiya zavodi vakillari tomonidan da'vo qilinganda, nizolar namunaning nazorat qismi bo'yicha hal qilinadi.

21. Texnik paxta chigit xar bir to'dasining sertifikatlashtirish sinovlari O'zbekiston «Sifat» markazi xududiy laboratoriyaning akkreditasiyalangan filiallarida «Sifat» markazining mutaxassislari tomonidan paxta zavodi va yog' ekstraksiya zavodi vakillari ishtirokida olib boriladi. Sinov natijalari Sinov bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Sinov bayonnomasini bevosita sinov o'tkazgan «Sifat» markazining mutaxassisini tomonidan imzolangandan keyin O'zbekiston «Sifat» markazi akkreditlangan xududiy laboratoriyasining mas'ul vakili tasdiqlab muxrildi (xizmat ko'rsatish belgisi). Paxta zavodi va yog' ekstraksiya zavodining vakillari Sinov bayonnomasini imzolab texnik chigit sifatiga «Sifat» markazi tomonidan berilgan bahoga roziliginibildiradi.

22. Paxta zavodi yoki yog' ekstraksiya zavodi urug'lar sifatini aniqlash bo'yicha norozi bo'lsalar, ular «Sifat» O'Mga appelyasiya bilan belgilangan tartibda murojaat qilishi, ya'ni sertifikasiya bilan bog'lik bo'lgan muammolarni qandaydir yechimidan norozi bo'lib shikoyat qilishi mumkin. Ular «Sifat» O'Mning markazi yoki urug' laboratoriyasida o'zlarining ishtiroklarida tajribani qaytadan o'tkazishni talab qilishlari mumkin.

Qayta o'tkazilgan tajriba natijalari birlamchi tajriba natijalari bilan amaldagi standartda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegirmalar meyorida bo'lsa, birlamchi sifat baholanishi to'g'ri hisoblanib, qatnashuvchi tomonlar uchun yakuniy hisoblanadi. Aks xolda esa, yakuniy baho bo'lib qayta o'tkazilgan tajriba natijalari hisoblanadi.

23. Texnik paxta chigit xar bir to'dasining sinov natijalari Sinov bayonnomasi bilan 3 nusxada rasmiylashtiriladi. Sinov bayonnomasining bir nusxasi partiyani qabul qilayotgan yog' zavodi vakiliga topshiriladi va yog'-moy korxonasi tekshirilgan partiyani transport orqali tashishda urug'lar sifati haqidagi ilova qilingan xujjat hisoblanadi. Yog' ekstraksiya zavodi tomonidan qabul qilinayotgan partiyani bir necha qismlarga bo'lib yuklanganda (bir nechta avtotransport vositalarida), har bir partiyaga sinov Bayonnomasining dublikati beriladi, bu holda yog' ekstraksiya zavodi paxta zavodiga o'z xohishiga ko'ra alohida transport vositalaridan tanlab namuna olib tahlillarni birgalikda o'tkazishni talab qilish xuquqiga egadir.

24. Partiyaning yuklab jo'natiladigan qismi uchun beriladigan sinov Bayonnomasining xar bir dublikatida «Sifat» O'M sifat natijalarini takror ko'rsatib, konkret transport vositalarining rekvizitlari bilan yuk xati raqami, hamda paxta zavodi va yog' ekstraksiya zavodi vakillari o'rtasida kelishilgan olib chiqilayotgan texnik urug'larning fizik va kondision massasi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

25. Amaldagi standart talablariga javob bermaydigan chigitning texnik urug'lari aniqlanganda, ushbu aniqlangan nomuvofiqlik haqidagi belgilar sinov Bayonnomasida qayd etiladi.

26. Sinov Bayonnomasida tegishli belgilar va muvofiqlik Belgisi ko'rsatilmaganda, muvofiqlik Sertifikati aniqlangan xajmga tegishli emasligidan dalolat beradi. Muvofiqlik Sertifikati quyidagi xollarda standart talablariga javob bermaydigan urug'lar xajmiga tegishli bo'lmaydi:

Chigit nuqsondorligi massaviy ulushi 4 nav uchun cheklangan me'yordan oshsa; tegishli sanoat navi uchun qabul qilingan namlik cheklovchi me'yorlardan yuqori bo'lganida;

tegishli sanoat navi uchun qabul qilingan tuklilik cheklovchi me'yorlardan oshganda;

suv yoki tashqi aralashmalar ta'sirida paydo bo'lgan chirish hidi urug'lar turkumida kuzatilganda;

texnik paxta chigitdagi pestisidlarning qoldiq miqdori gigiyenik sertifikatlar (xulosalar) asosida me'yordan yuqori bo'lganda.

27. Chigit to'dasining nomuvofiqligi ko'rsatilgan Sinov bayonnomasi asosida, «Sifat» markazining mutaxassis Ushbu to'daga Inspeksiya dalolatnomasini rasmiylashtiradi, u «Sifat» markazi va paxta zavodi vakillari tomonidan imzolanadi, xududiy laboratorianing mas'ul vakili tomonidan tasdiqlab muhrlanadi (xizmat ko'rsatish belgisi). Inspeksiya dalolatnomasida yog' ekstraksiya zavodi vakilining ushbu paxta chigitini qabul qilish uchun rozilik imzosi qo'yilgan bo'lsa, u texnik chigitning sifati xaqidagi xujjat bo'lib hisoblanadi va muvofiqlik Sertifikati o'rnini bosadi, yog' ekstraksiya zavodi tomonidan yakuniy qabul qilinganligi to'g'risidagi dalolatnama hisoblanib, sifati bo'yicha shikoyat qilish xuquqiga ega bo'lmaydi.

28. Paxta chigiti paxta zavodlaridan fizik va kondision massasi bo'yicha amaldagi standart me'yorlariga keltirilgan namlik, mineral va organik aralashmalar bo'yicha qabul qilinadi va hisobga olinadi.

29. Fizik massa chigitning yog' ekstraksiya zavodidagi nazorati, hisob-kitobi, hisoboti, kondision massani aniqlash uchun asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Kondision massadagi hisob kitob chigitga pul to'lashda ishlataladi.

30. Paxta chigitini paxta zavodidan iste'molchilarga jo'natishda albatta tekshirilgan avtomobil yoki vagonli tarozilarida yog' ekstraksiya zavodi vakillari va ekspeditor xaydovchisi ishtirokida tortish kerak. Yuklangan chigtlarni jo'natishda belgilangan shakldagi tovar-transport yuk xati 3 nus'hada tuzilib, unda chigitning fizik massasi ko'rsatiladi.

31. Paxta chigiti va boshqa yog'li o'simlik urug'lari yog' ekstraksiya zavodiga avtomobil, temir yo'l va zavodlararo transportda keltirilishi mumkin.

32. Chigtlarni avtomobil transportida keltirilganda tarozibon xaydovchi-ekspeditordan 3 nusxadagi tovar-transport yuk xatini (turkum boshida), sinov bayonnomasini oladi, avtotransport vositasini chigit bilan birgalikda tortadi va tortilmalar jurnaliga 1-shaklga (ushbu Nizomga 1-ilova) va 3 nusxadagi yuk xatiga qora qog'oz qo'yib brutto og'irligini yozadi va avtotransport vositasini chigit bilan birga ko'rsatilgan to'kish joyiga yuboradi.

33. Paxta zavodining barcha 3 nusxadagi yuk xati yuk tushirilib, bo'sh avtotransport taroziga qaytib kelgunga qadar tarozibonda qoladi. Avtotransport tortilgandan so'ng, tarozibon tortilmalar kitobiga va yuk xatining barcha nusxalariga qabul qilingan chigitning netto massasini (brutto va tara massalari farqiga ko'ra) yozadi, yuk xatlarini imzolaydi va to'rtburchak muhr qo'yadi.

34. Tortilmalar kitobi tortish joyida qulflangan holda saqlanadi. Navbatchi tarozibonlar smenani topshirish va qabul qilishda har bir smenadagi oxirgi yozuvdan so'ng imzo qo'yadilar.

35. To’ldirilgan yuk xatini birinchi nusxasini sinov bayonnomasi bilan birgalikda tarozibon o’zida olib qoladi, yuk xatini ikkinchi va uchinchi nusxalarni urug’larni olib kelgan haydovchi (topshiruvchi)ga qaytaradi, agar keltirilgan yukda kamaomad aniqlansa unga kamomad dalolatnomasini 2-shakl (Ushbu Nizomga 2-ilova)ni beradi. Agar paxta chigit kamomadi avtomobilda tashib keltirilgandagi tabiiy yo’qotish me’yorlaridan oshmasa, kamomad haqidagi dalolatnomalar tuzilmaydi. Kamomad dalolatnomasi boshqa xujjatlar (yuk xati, sinov bayonnomasi) bilan birga buxgalteriyaga topshiriladi, shartnomaga asosan yuk tashuvchiga e’tiroz bildirish uchun.

36. Urug’larni temir yo’l transportida keltirilganda, tarozibon temir yo’l vagonini chigit bilan birgalikda tortib, brutto og’irlikni 3-shakl (ushbu Nizomga 3-ilova) tortilmalar kitobiga yozib oladi va vagonni yuk tushirishga yuboradi. Yuk tushirilgandan so’ng vagon yana tortilib, tortilmalar kitobiga tara og’irligi yozilib, qabul qilingan urug’larning netto og’irligi aniqlanadi.

37. Agarda paxta chigit kamomadi temir yo’l orqali tashishdagi tabiiy yo’qotish me’yorlaridan oshmasa, tijorat dalolatnomasi tuzilmaydi. Tabiiy yo’qotish me’yorlaridan tashqari, brutto og’irligidan 0,1% miqdorida tarozilarning tafovutiga ijozat beriladi.

Paxta chigit kamomadi temir yo’l orqali tashishdagi tabiiy yo’qotish me’yordan yuqori bo’lsa, temir yo’l bekti vakili, urug’ xo’jaligi boshlig’i va «Sifat» O’M vakili ishtirokida 4-shakl (ushbu Nizomga 4-ilova) tijorat dalolatnomasi tuzadi. Bunda temir yo’lga taqdim etiladigan kamomad to’g’risidagi da’vo tasdiqlangan tabiiy yo’qotish me’yori miqdorini ayirib tashlangan holda taqdim etiladi.

38. Yuk xatlari har kuni sinov bayonnomasi va qabul qilish dalolatnomalarini ilova qilgan holda yog’ ekstraksiya zavodi buxgalteriyasiga topshiriladi.

### **Paxta chigitlarini yetkazib berishni o’zaro solishtirish**

39. Texnik paxtaning chigitini to’liq saqlanishini ta’minlash maqsadida paxta chigitlarini yetkazib berish bo’yicha o’zaro solishtiruv amalga oshiriladi. Har oyda paxta zavodlari, yog’ ekstraksiya zavodlari va «Sifat» O’M inspektori bilan birgalikda 5-shakl (ushbu Nizomga 5-ilova) o’zaro solishtiruv haqidagi dalolatnomani 6 nusxada to’ldiradilar va unda paxta tozalash zavodi yuklab jo’natgan chigit va yog’ ekstraksiya zavodi tomonidan qabul qilingan chigitlar turini xajmi, fizik va kondision massasi ko’rsatiladi, tafovut aniqlanganda, shunday xol uchrasa, tafovut sabablari ham bayon qilinadi. Yo’l kamomadlari ko’rsatilmaydi, ularning hisobi yog’ ekstraksiya zavodida alohida olib boriladi. Dalolatnomalar paxta zavodi va yog’ ekstraksiya zavodi raxbari, bosh hisobchi, urug’ xo’jaligi boshlig’i, shuningdek, «Sifat» O’M inspektori tomonidan imzolanib, muhrlanadi va o’zlarining yuqori tashkilotlariga hisobot davridan keyingi oyni 3-kunigacha bo’lgan muddatda yuboriladi, bir nusxasi esa korxonada qoladi.

40. Yuklab jo’natilgan va qabul qilingan paxta chigitlari orasidagi farq, ularning sodir bo’lish sabablari aniqlangandan so’ng, belgilangan tartibda ko’rib chiqiladi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. “Yog’larni qayta ishslashda qayd va hisobot” fanini o’rganishdan maqsad?
2. Birlamchi hujjatlarga nimalar kiradi?
3. Moddiy javobgar shaxslar kimlar?
4. Moddiy javobgar shaxslarni almashtirish tartib qoidalari nimalardan iborat?
5. Inventarlash nima?
6. Tarozi-o’lchov asboblaridan foydalanish va ularni nazorat etish qoidalari?

### **Tayanch so’z va iboralar**

qayd, hisobot, qayta ishslash korxonalari, xomashyo, yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulot, chiqindi, birlamchi hujjat, bosh muxandis, moddiy javobgarlik, inventarlash, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari, kirim hujjati, chiqim hujjati, kalibrash

### **2-mavzu. Boshqa xil o’simlik urug’larini (kungabokar, soya, raps, maxsar, kunjut va boshq.) qishloq xo’jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari: shirkat, dehkon-fermer xo’jaliklari va shaxsiy topshiruvchilardan sotib olish yo’li bilan qabul qilish**

**Reja** Kungaboqarni ishlab chiqaruvchilari: shirkat, dehkon-fermer xo’jaliklari va shaxsiy topshiruvchilardan sotib olish yo’li bilan qabul qilish. Yog’li urug’larning namlik va begona aralashmalar bo’yicha sifat ko’rsatkichlari. Natural ustama yoki chegirma sifati.

41. Qishloq xo’jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan jo’natiladigan yog’li o’simlik urug’lari namunaliy tovar-transport yuk xati va birlamchi hisob xujjatlari shakllariga to’g’ri keluvchi boshqa xujjatlar bilan birga olib kelinadi. Har bir avtomobil turkumi (alohida avtomobil yoki tirkamali avtomobil (traktor)ga alohida yuk xati yoziladi. Chigit qishloq xo’jaligi korxonalaridan o’zlarining transport vositalarida jo’natilganda, yuk xatlari uch nusxada yozilib, biri korxonada qolsa, ikkinchi va uchinchi nusxalari qishloq xo’jaligi korxonalariga qaytariladi. Chigit qishloq xo’jaligi korxonalaridan o’zlariga tegishli bo’lmagan avtotransportlarda keltirilganda, yuk xatlari to’rt nusxada yozilib, biri korxonada qolsa, ikkinchisi qishloq xo’jaligi korxonasiqa qaytariladi, uchinchi va to’rtinchi nusxalari esa chigitni yetkazib bergen avtotransport haydovchisi orqali avtokorxonaga avtotransport ishini hisobga olish va mijoz bilan hisob-kitob qilish uchun yuboriladi.

42. Yog’li o’simlik urug’larini yuk xatisiz yetkazib berilganda, korxonada topshiruvchi vakil va xaydovchi ishtirokida dalolatnoma tuziladi va unda quyidagi ma’lumotlar ko’rsatiladi: qishloq xo’jaligi korxonasining nomi, avtomobil raqami va egasining nomi, yog’li o’simlik nomi, yetkazib berish masofasi, yo’l varaqasi bo’yicha yuk og’irligi va topshirish turi. Dalolatnoma to’rt nusxada tuzilib, yuk xatlari uchun belgilangan tartibda xujjatlar asosida korxona tomonidan qabul qilingan yog’li o’simlik urug’larini kirim qilishni rasmiylashtirish uchun ishlatiladi.

43. Yog’li o’simlik urug’ini yog’ moy korxonasida qabul qilish, urug’ni tortish va

8-shakl bo'yicha dalolatnomani rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Yog'moy korxona laboratoriysi belgilangan meyoriy xujjatlarga muvofiq qabul qilish va urug' sifatini aniqlash usullari bo'yicha yog'li urug' sifatini (namlik, begona aralashmalar, yog'li aralashmalar, zararlangan va boshq.).

44. Urug' keltirgan xo'jalik vakili, kunlik o'rtacha namuna bo'yicha laboratoriya tomonidan o'tkazilgan tahlil natijalaridan norozi bo'lganda, uning ishtirokida takroriy tahlil o'tkaziladi, agar vakil takroriy tahlil natijalaridan ham norozi bo'lsa, tahlil Davlat don inspeksiyasining viloyat bo'limi inspektori ishtirokida o'tkaziladi.

45. Yog' ekstraksiya zavodlarining qabul qilingan urug'lar uchun hisoblari, uning sifatiga muvofiq urug' qabul qilinayotganda tuzilgan shartnama asosida amalga oshiriladi. Yog' ekstraksiya zavodlariga yetkazib berilgan, amaldagi standartda keltirilgan bazis me'yorlarga sifati bo'yicha mos keladigan urug' uchun mablag' preyskurant bo'yicha va tuzilgan kontraktasiya shartnomalariga muvofiq kelishilgan xarid narxi bo'yicha amalga oshiriladi.

46. Yog'li urug'larning namlik va begona aralashmalar bo'yicha sifat ko'rsatkichlari bazis me'yorlariga to'g'ri kelmasa, kontraktasiya shartnomalariga asosan qo'yidagilar:

a) bazis me'yorlaridan kam bo'lgan namlik va begona aralashmalarning har bir foiziga 1,0 % miqdorda fizik massasiga natural ustama;

b) namlik va begona aralashmalar ko'rsatkichlari bazis me'yorlaridan yuqori bo'lsa, fizik massasiga xuddi shu miqdorida tabiiy chegirma qo'llaniladi.

Natural ustama va chegirmalar 0,1 % gacha aniqlikda hisoblanadi.

47. Urug'larning natural ustama yoki chegirmalar miqdoriga (namlik va begona aralashmalar bo'yicha bazis me'yorlarga nomuvofikligiga asosan) ko'paygan yoki kamaygan fizik massasi hisobiy massa hisoblanadi va unga kelishilgan narxlarda haq to'lanadi va kontraksiya shartnomalariga asosan sotib olish xajmiga hisobga olinadi. Preyskurant va kelishilgan narxlarni tasdiqlash qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Natural ustama yoki chegirma sifatning namlik va begona aralashmalar bo'yicha chetga og'ishlar yig'indisi holida hisoblanadi, masalan: qabul qilingan kungabokar urug'inining fizik massasi 200 000 kg tashkil qiladi. Namlikning bazis me'yor 7,0 %, haqiqiy namlik – 9,5 %, begona aralashmalar: bazis me'yor 1,0 %, xakikatda 2,5 %.

Bazisdan chetga og'ish yig'indisi quyidagilarni tashkil etadi:

namlik bo'yicha: 7,0-9,5 = - 2,5%

begona aralashmalar bo'yicha: 1,0 – 2,5 = - 1,5%

Chetga og'ish jami: -2,5 + (-1,5) = - 4,0%

Tabiiy ustama (+), chegirma (-) qo'yidagini tashkil etadi:

200000 x (-4,0)

----- = - 8000 kg.

100

Hisobiy massa 200 000 - 8000 = 192 000 ni tashkil etadi.

Boshqa sifat ko'rstanichlari (namlik va begona aralashmadan tashqari) bo'yicha bazis me'yorlardan chetga og'ish hollarida, narxdan pul chegirmalari kontraksiya shartnomalariga asosan amalga oshiriladi:

kana bilan zararlangan urug'lar uchun – 0,05 %;

sifatsiz va zararlangan (standart bo'yicha yog'li aralashma hisoblangan) urug'ni bazis me'yordan yuqori bo'lган har bir foizi uchun – 0,1%.

### **3-mavzu. Chet eldan keltirilgan yog'li xom-ashyolarni qabul qilish. Omborda yog'li urug'larni hisob-kitobini yuritish. Urug'larni ombordan ishlab chiqarishga berishdagi hisob-kitob**

**Reja** Yuk jo'natuvchining sifat ko'rsatkichlari. Yog'li xom-ashyolarni qabul qilish. Paxta chigit va boshqa yog'li o'simlik urug'lari qabul qilish. Urug'larni miqdor-sifat hisobini yuritish kitobi. Paxta chigitlarini kirim qilish. Ishlab chiqarishga berishdagi hisob-kitob. 9-shakl; 9-ilova. Dalolatnomani 8-shakl

48. Yog' xom-ashyosi massasini tortishda, kamomad yoki ortiqcha xom-ashyo aniqlansa, mustaqil ekspertizaning tijorat dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Mustaqil ekpertiza dalolatnomasiga asosan yuk oluvchi tomon yuk jo'natuvchiga da'vo arizasi taqdim etadi. Agar yuk massasi mos kelsa, massa ekspertizasi dalolatnomasi beriladi. Vagondan yuk tushirishda, «O'zstandart» agentligi, O'zdavdoninspeksiyasi, SES, O'zboshdavkarantin, Davlat bojxona qo'mitasi va korxona laboratoriysi vakillari birgalikda tahlil o'tkazish, ruxsat va sertifikat berish uchun namuna oladilar.

Yuk jo'natuvchining sifat ko'rsatkichlari yuk qabul qiluvchining ko'rsatkichlariga mos kelmagan holda, reklamasiya dalolatnomasi tuzilib, yuk jo'natuvchiga da'vo arizasi beriladi. Sifat ko'rsatkichlari muvofiq kelsa, da'vo qilinmaydi. Chet eldan keltirilayotgan yog'li urug'larni bojxonada rasmiylashtirish qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yuk bojxonada rasmiylashtirilganidan keyin yuk oluvchi korxonaga keyinchalik qayta ishslash uchun beriladi.

49. Chet eldan keltirilayotgan xom-ashyolarni qabul qilish shartnoma shartlariga, shuningdek yuk yetkazib beruvchi mamlakat talablariga binoan yoki halqaro standartlarga asosan amalga oshiriladi. Masalan: soya donini sifat bo'yicha qabul qilish yuk yetkazib beruvchi tomonidan qabul qilingan xalqaro «Fosfa» usuli talablariga banoan amalga oshiriladi. Ushbu usul miqdor bo'yicha qabul qilish va haq to'lash uchun qo'llanilsa, korxonada soya urug'ini hisobga olish uchun sifati GOST bo'yicha aniqlanadi. Sifat ko'rsatkichlari mustaqil laboratoriya tomonidan aniqlanadi, shundan so'ng «Muvofiklik sertifikati» beriladi.

50. Yog'-moy korxonasiga chet eldan keltirilgan urug'lar turkumi og'irligi, ombor mudiri tomonidan paxta chigitini qabul qilgandek tarozida tortib qabul qilinadi.

51. Yog' ekstraksiya zavodiga chet eldan keltirilgan xom-ashyo sifatini korxona laboratoriysi aniqlaydi. Korxona tahlillari natijalari bo'yicha amaldagi standartda ruxsat berilgan me'yorga nisbatan tafovutlar aniqlangan bo'lsa, chet eldan keltirilgan xom-ashyoni qabul qilish mustaqil laboratoriya belgilagan sifat ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Aniqlangan tafovutlar, amaldagi standartda ruxsat berilgan me'yordan yuqori bo'lsa, chet eldan keltirilgan xom-ashyo sifatini aniqlash mustaqil laboratoriya va xom-ashyo yetkazib beruvchi bilan birgalikda qonunda belgilangan tartibda va xom-ashyo yetkazib berish haqidagi tuzilgan shartnoma (kontraktlar)da ko'rsatilgan shartlarni

hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

### **Inventarlashni amalga oshirish xususiyatlari**

155. Belgilangan muddatlarda, kamida bir yilda bir marta, korxona omborlari va sexlaridagi hom-ashyo va materiallar qoldiqlari inventarizasiya qilinadi. Inventarizasiya o'tkazishda, natijalarini rasmiylashtirishda va farqlarni tartibga solishda korxonalar Buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-son BHMS) «Inventarizasiyani tashkil etish va o'tkazish» (1999 yil 2 noyabrdagi 833-raqami bilan ro'yxatga olingan)ga va Inventarizasiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasing buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 1334, 2004 yil 6 aprel, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004 yil, 14-son, 173-modda)ga amal qilishlari lozim.

156. Yog'-moy korxonalarida inventarizasiya o'tkazishda quyidagilar hisobga olinadi:

a) omor va sexlardagi barcha moy xom-ashyosi, asosiy materiallar va tayyor maxsulotlar barcha sig'implarni tozalash bilan tortish usulida to'liq inventarizasiya qilinadi.

b) korxona omorlarida saqlanayotgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari (shirkat, dehqon, fermer xo'jaliklari va individual maxsulot topshiruvchilar)ning xom-ashyosidan tayyorlangan maxsulotlarga, korxonaning xom-ashyosi va maxsulotlari qatorida bab-barobar inventarizasiya o'tkaziladi.

157. Inventarizasiya o'tkazilayotgan vaqtida tayyor maxsulotlarni va xom-ashyon qabul qilish, topshirish (nasos yordamida yuklash) va berilishi to'xtatiladi.

158. Inventarizasiya qaydnomalari (ro'yxatlari) mahsulot saqlash joylari va mahsulot turlari bo'yicha tekshirish vaqtida tuziladi va barcha inventarizasiya komissiyasi a'zolari va moddiy javobgar shaxs imzolaydi. Bir turdag'i maxsulot va xom-ashyo bir necha omorlar g'aramlarida saqlanayotgan holatlarda, inventarizasiya har bir joyda, alohida ro'yxatlarga tekshirish ma'lumotlarini yozish bilan o'tkaziladi, inventarizasiya komissiyasining butun tarkibi va moddiy javobgar shaxs imzolaydi.

159. Komissiya alohida saqlash joylari bo'yicha o'tkazilgan inventarizasiya yakunida umumiy inventarizasiya dalolatnomasini tuzadi.

160. Hisobot oyi davomida qayta ishlangan urug'lar miqdori ishlab chiqarishga topshirilgan urug'lar massasini oy boshidagi urug' qoldig'iga qo'shib, oy oxiridagi urug'lar qoldig'ini ayirish bilan aniqlanadi.

161. Inventarizasiya dalolatnomasi 25-shakl (ushbu Nizomga 25-ilova) va 26-shakl (ushbu Nizomga 26-ilova) bo'yicha tuziladi.

## **Omborda yog'li urug'larni hisob-kitobini yuritish**

52. Paxta chigit va boshqa yog'li o'simlik urug'lari qabul qilinganidan keyin ombor bo'linmalarida yog'li urug'larning turi va navi bo'yicha ya'ni I, II, III nav urug'lar quyi navli (IV va nostandard navlar) urug'laridan alohida saqlanadi, yuqori namlikdagi urug'lar esa birinchi navbatda ishlab chiqarishga topshiriladi. Saqlash natijasida urug' harorati atrof-muhit haroratidan 5°S yuqori bo'lganda ag'darish ya'ni, transport elementlari vositasida urug'larni bir bo'limdan boshqa bo'limga o'tkazish, faol shamollatish amalga oshiriladi, buning natijasida urug'lar namligi kamayishi, ularni saqlash muddati oshishi mumkin.

Urug'larning namlik bo'yicha sifatining yaxshilanishi, omborlarni tozalashda ham o'z aksini topadi (11-shakl, 11- ilova). Paxta chigitining namlik va begona aralashmalar bo'yicha hisobdan chiqarish omborlarni tozalash dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

53. Urug'larni miqdor-sifat hisobini yuritish kitobida hisobga olishda kirim navlar bo'yicha va chiqim esa, turli navdagi aralash urug'lar bo'yicha 7-shakl (ushbu Nizomga 7-ilova)da olib boriladi. Paxta chigit miqdori fizik va amaldagi standartda keltirilgan namlikni massa ulushi hamda mineral va organik aralashmalarni massa ulushi bo'yicha hisoblangan kondision og'irlik solishtiruv dalolatnomalariga asosan kirim qilinadi va fizik massasi bo'yicha chiqim qilinadi. Urug'larning yo'ldagi kamomadini qayd qiluvchi yozuv, bir vaqtning o'zida kamomad haqidagi dalolatnomalarga asosan, alohida ustunda olib boriladi.

54. Paxta chigitlarini kirim qilishda "Sifat" markazining sinov bayonnomasiga ko'ra - namlik, mineral va organik aralashmalar va tukdorlik ko'rsatkichlariga asosan; chiqimda esa – yog'dorlik, namlik, mineral va organik aralashmalar (7-shakl) bo'yicha hisob-kitob olib boriladi. Miqdor-sifat hisobini yuritish kitobi (7-shakl) moddiy javobgar shaxs tomonidan ushbu Nizomning 7-ilovasida ko'zda tutilgan tartibda olib boriladi. Yog' ekstraksiya zavodlari qabul qilingan paxta chigiti uchun hisob-kitobni kondision massada amalga oshiradi. Chigitning kondision massadagi hisobi amaldagi texnik paxta chigiti standartida keltirilgan formula bo'yicha amalga oshiriladi.

## **Urug'larni ombordan ishlab chiqarishga berishdagi hisob-kitob**

55. Yog' ekstraksiya zavodlarida ishlab chiqarish, urug'larni massasi tortilgandan so'ng ishlab chiqarish bunkeriga kelib tushishidan boshlanadi. Ishlab chiqarish sexlari qatoriga tozalash va quritish bo'limi kiradigan yog' ekstraksiya zavodlarida ishlab chiqarishni boshlanishi, yog'li urug'larni ombordan ko'rsatilgan bo'lim bunkerlariga (tushirish o'ralari)ga tarozida tortilganidan keyin kelib tushishi hisoblanadi.

56. Urug'larni tozalash va quritish xom-ashyo omborlarida amalga oshiriladigan yog' ekstraksiya zavodlarida, yog'li urug'larning ishlab chiqarishga berilishi bo'lib, ularni ombordan zavodning tayyorlov bo'limi bunkerlariga berilishi hisoblanadi.

57. Paxta chigitini qayta ishlovchi yog' ekstraksiya zavodlarida, xom-ashyo omboridan ishlab chiqarishga beriladigan chigitlarning massasi va sifati tozalash va namlash jarayonlaridan oldin aniqlanadi. Tozalash va namlash ishlab chiqarish

jarayoniga tegishlidir.

58. Urug'larni boshqa korxonalarga berishda, ularni yuklab jo'natish yog' ekstraksiya zavodi direktorining farmoyishi bilan va tegishli yuklab jo'natish xujjatlari asosida amalga oshiriladi.

59. Urug'lar ombordan ishlab chiqarishga, korxona laboratoriysi aniqlangan fizik masasi va sifati bo'yicha beriladi.

60. Urug'larning massasini urug' ombori navbatchi vakili va asosiy ishlab chiqarish smena muhandisi tarozilarda (9-shakl; 9-ilova) tortib aniqlaydilar. Avtotarozilarning hisoblagich ko'rsatkichlari smena boshi va yakunida 9-shakl (ushbu Nizomga 9-ilova) tortilmalar kitobiga yozib qo'yiladi. Smena davomida kamida bir marta nazorat tortishlar (har bir avtomatik tarozilardan uchtdan tortilma) amalga oshirilib, natijasi mahsus jurnal yoki dalolatnomada qayd qilinadi. Smena davomida ishlab chiqarishga topshirilgan urug'lar miqdori smena oxirida jamlanadi, hamda urug' ombori navbatchi vakili va asosiy smena muhandisi tomonidan tasdiqlanadi.

61. Ombordan ishlab chiqarishga berilayotgan urug'lardan, tozalashdan oldin, belgilangan usullar bilan namunalar olinadi va urug' sifati (yog'dorligi, namlikning massaviy ulushi, mineral va organik ifloslik va boshq.) aniqlanadi.

62. Smena ma'lumotlari asosida urug' xo'jaligi boshlig'i va tayyorlov sexi boshligi imzolari bilan kunlik urug'larni ichki o'tkazishlar qabul qilish-topshirish dalolatnomasi tuziladi 8-shakl (ushbu Nizomga 8-ilova). Laboratoriya dalolatnomada namlik, mineral va organik aralashmalar miqdorini ko'rsatadi.

63. Dalolatnomani 8-shakl, 3-ustunida (ushbu Nizomga 8-ilova) urug'lardan olingan namuna asosida o'tkazilgan sinov natijasiga ko'ra aniqlangan sanoat navi ko'rsatiladi.

64. Turli xil sanoat navli chigitlar aralashmasining fizik massasi va uning o'rtacha sifat ko'rsatkichlari (namlik, mineral va organik aralashmalar) chigitlarni miqdor-sifati bo'yicha hisobini yuritish kitobining chiqim bo'limiga kiritish uchun ko'rsatiladi (7-shakli; 7-ilova).

65. Har bir sanoat navli chigitning fizik massasi dalolatnomaga chigitni qayta ishlashga berishda shartli ravishda hisobdan chiqarish uchun qo'yiladi va chigitning kirimi, chiqimi va qoldiqni xisobga olish bilan aniqlanadi 22-shakl (ushbu Nizomga 22-ilova) va 23-shakl (ushbu Nizomga 23-ilova).

66. Texnik sabablarga ko'ra chigitlarni tortish uchun ishlatiladigan avtomatik tarozilar ishdan chiqsa, ularning to'xtab turish vaqtini chigitni ichki o'tkazishlar dalolatnomasida belgilab qo'yiladi 8-shakl (ushbu Nizomga 8-ilova). Avtomatik tarozilarni to'xtab qolgan vaqtida qayta ishlangan urug' massasi, oldingi uch kun davomida o'tkazilgan chigitning o'rtacha miqdori bo'yicha aniqlanadi.

#### **4-mavzu. Chigit omborini tozalash. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni hisob-kitobini yuritish. Chigit shulxasi (luzga) hisob-kitobi.**

**Reja.** 11-shakl dalolatnomasi. Chigitning fizik massasi yo'qotishini hisobdan chiqarish. Urug'lar kamomadi namlik va ifloslik bo'yicha yo'qotishni aniqlash. Yog'li urug'larni o'rtacha saqlash muddati 3 oydan ko'p bo'lganda aniqlash.

## **Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni hisob-kitobini yuritish**

83. Yog' zavodi (sex) ishlab chiqargan mahsulot deb (oraliq mahsulotlarni qo'shib hisobga olgan holda) sifat bo'yicha amaldagi standart va boshqa me'yoriy-texnik xujjatlar talablariga javob beradigan, omborlarga yoki boshqa sexlarga keyinchalik qayta ishlov berish uchun berilgan mahsulotlar miqdori tushunilanadi.

84. Barcha ishlab chiqarilgan rafinasiya qilinmagan yog', shrot (kunjara), shulxa ishlab chiqarishdan chiqishi bilan massasi tortiladi va tayyor mahsulotlar omboriga yoki boshqa sexlarga topshiriladi.

## **Chigit shulxasi (luzga) hisob-kitobi**

85. Barcha ishlab chiqarilgan paxta shulxasi yog' ekstraksiya zavodidan (sexdan) chiqishi bilan, natural massasi va namlikda shulxa omboriga topshiriladi.

86. Ishlab chiqarilgan shulxani gidroliz zavodiga topshirishda hisobi lentali avtomatik tarozilarda amalga oshiriladi. Lentali avtomatik tarozilarni, shulxani nazorat turkumi bo'yicha tekshirish, yog' og'irlilik zavodi va gidroliz zavodi vakillari tomonidan 10 kunda kamida bir marta amalga oshiriladi. Lentali avtotarozilardan yog' ekstraksiya zavodining avtomobil tarozilarida tortilgan shulxani nazorat tortilmalari o'tkaziladi. Lentali tarozilarni tekshirish dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

87. Shulxa ombori oldida o'rnatilgan avtomatik tarozilarning hisoblagich ko'rsatkichlari smena boshida va yakunida smena muhandisi va shulxa ombori smena vakili tomonidan tortilmalar kitobiga yozib qo'yiladi 9-shakl (ushbu Nizomga 9-ilova). Smena yakunida ishlab chiqarishdan smena davomida omborga topshirilgan shulxa miqdori bo'yicha natijalar hisoblanib, smena muhandisi va shulxa ombori smena vakili tomonidan tasdiqlanadi.

88. Yog' ekstraksiya zavodidan (sexdan) berilgan shulxadan belgilangan usulda namuna olinib, shulxa sifati (yog'dorligi, namlikning massaviy ulushi) aniqlanadi.

89. Smena ma'lumotlari asosida kunlik topshirish-qabul qilish dalolatnomasi tuziladi 10-shakl (ushbu Nizomga 10-ilova).

90. Paxta shulxasi hisob-kitobi natural massada 12-shakl (ushbu Nizomga 12-ilova) bo'yicha olib boriladi.

Ekstraksiya usuli bilan moy olishda qayd va hisobot. Xom ashyo, oraliq mahsulotlar, kunjara va shrotning kutilayotgan va haqiqiy chiqishini hisobga olish. Yordamchi materiallar hisobi.

## **5-mavzu. Shrot (kunjara) hisob-kitobini yuritish**

**Reja.** Shrot massasi portlashdan xavfsizligi. Smena ma'lumotlari asosida kunlik topshirish-qabul qilish dalolatnomasi. Shrot (kunjara) omborini inventirizasiya qilish va tozalashda 11- shakl. shrotning taxminiy miqdori zavod ichidagi hisob-kitob

91. Butun ishlab chiqarilgan paxta, soya va x.k. shroti (kunjarasini) yog' ekstraksiya zavodlaridan (sexlardan) olib chiqilishi bilan shrot ombori mudiriga natural massa va namlik bo'yicha topshiriladi. Ishlab chiqarishdan omborga topshiriladigan shrot massasi va namligi, shrotning namlik va harorati bo'yicha kondensasiya qilinganidan keyin aniqlanadi.

92. Shrot massasi portlashdan xavfsiz qilib ishlangan avtomatik tarozilarda, shrotni tortish yo'li bilan aniqlanadi. Avtomatik tarozilarning hisoblagich ko'rsatkichlari smena boshida va yakunida smena muhandisi va shrot (kunjara) omborining navbatchi vakili tomonidan tortilmalar kitobiga yozib qo'yiladi 9-shakl (ushbu Nizomga 9-ilova). Smena davomida kamida bir marta nazorat tortishlari amalga oshirilib (har bir avtotarozidan uch tortilmadan), natijalar ishlab-chiqarish jurnali yoki maxsus dalolatnomada qayd qilinadi. Smena yakunida ishlab chiqarishdan smena davomida omborga topshirilgan shrot miqdori bo'yicha natijalar hisoblanib, smena muhandisi va shrot ombori navbatchi vakili tomonidan tasdiqlanadi.

93. Ishlab chiqarishdan omborga topshirilgan shrotdan belgilangan usulda namunalar olinib, shrotni sifati (yog'dorligi, namlikning masaviy ulushi) aniqlanadi.

94. Smena ma'lumotlari asosida kunlik topshirish-qabul qilish dalolatnomasi 13-shakl (ushbu Nizomga 13-ilova) tuziladi va sex boshlig'i va shrot ombori boshligi imzolari bilan tasdiqlanadi. Laboratoriya dalolatnomada shrot namligini ko'rsatadi. Omborga topshirilgan shrot har bir turi, natural massasi va namligi bo'yicha miqdor-sifat kitobida qayd qilinadi 14 –shakl (ushbu Nizomga 14- ilova).

95. Texnik sabablarga ko'ra avtomatik tarozilar ishdan chiqsa (ishlash holatidan), ularning ishsiz turgan muddati belgilab qo'yiladi. Avtomatik tarozining ishsiz turgan vaqtida ishlab chiqarilgan shrot massasini aniqlash oldingi uch kunda shrotning o'rtacha o'tkazilgan miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

96. Shrot (kunjara) omborini inventarizasiya qilish va tozalashda 11- shakl (ushbu Nizomga 11-ilova), namlikning o'zgarishi hisobiga massada kuzatiladigan o'zgarishlar xuddi urug'lardagi kabi aniqlanadi va miqdor-sifat hisob-kitobida aks ettiriladi 14-shakl (ushbu Nizomga 14-ilova).

97. Shrotning saqlashdagi tabiiy yo'qotish mexanix yo'qotishlar (yopishish, changishlar) bilan asoslanadi va shu sababli, saqlanish muddati qancha bo'lishidan qat'iy nazar, tabiiy yo'qotish me'yori (0,29 %) o'zgarmaydi.

Tozalash va inventarizasiya qilish davomida aniqlangan shrot (kunjara) ning ortiqcha yoki kamomadlari ham miqdor-sifat hisob-kitobida aks ettiriladi. Tozalash va inventarizasiya qilish davomida aniqlangan shrot (kunjara)ning ortiqcha va kamomadlarini buxgalteriya va soliqqa tortish «Inventarizasiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi to'g'risida”gi Nizomga asosan amalga oshiriladi (ro'yxat raqami 1334, 2004 yil 6 aprel, O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2004 yil, 14-sonli, 173-modda.).

98. Shrotni sotish uzoq vaqt davomida amalga oshirilmagan bo'lsa (10 kundan ortiq) shrotning taxminiy miqdori zavod ichidagi hisob-kitob uchun qo'yidagi formula bo'yicha hisoblab chiqish mumkin:

$$Ch_{shr} = 100 - (X + Sh + Ye + Y)$$

Bu yerda:

$Ch_{shr}$  - shrotning chiqishi, % da

100 – qayta ishlangan urug'larning umumiyligi miqdori, % da

X – tarozidan o'tgan, haqiqiy ishlab chiqarilgan yog'ning miqdori, % da

Sh - sotilgan shulxa miqdori, % da

Ye - sotilgan siklon momig'i miqdori, % da

Siklon momig'ini shulxa bilan birga sotilganda  $Ye=0$

Y – Yog’-moy va oziq-ovqat sanoati Uyushmasi tomonidan tasdiqlagan, me’yorlashtirilgan tabiiy yo’qotishlar, % da.

Masalan: 100 tonna paxta chigitidan 18 tonna yog’ ishlab chiqarildi yoki 18 %, 30 tonna shulxa yoki 30 % ishlab chiqarildi, rejadagi tabiiy yo’qotishlar 6,0 %ni tashkil etadi. Siklon momig’i shulxaga yo’naltiriladi.

$$Ch_{shr} = 100 - (18 + 30 + 6) = 46\%$$

## **6-mavzu. Rafinasiyalanmagan yog’, yog’ xom-ashyosi, soda mahsulotlari va boshqalar hisobini yuritish**

**Reja.** Rafinasiyalanmagan yog’ hisobini yuritish. Yog’ xom-ashyosi, soda mahsulotlari hisobini yuritish. Yog’ning hisob-kitobi tayyor mahsulotlarni hisob-kitobini yuritish kitobi.

99. Rafinasiyalanmagan yog’ ishlab chiqarilishiga ko’ra yog’ ekstraksiya zavodi (sexi) tomonidan rafinasiya sexiga og’irlik va sifati bo’yicha topshiriladi. Rafinasiya sexi rafinasiyalanmagan yog’ni turi va nava ko’ra asosiy sifat ko’rsatkichlariga asosan qabul qilib oladi.

100. Topshiruvchi va qabul qiluvchi smena davomida yog’ni tarozida tortib, tortilmalarni tortilmalar kitobiga yozib qo’yadi 9-shakl (ushbu Nizomga 9-ilova). Smena yakunida har bir yog’ turi bo’yicha natijalar jamlanib, ularning to’g’riliqi sex tomonidan smena muhandisi, rafinasiya sexi tomonidan esa rafinasiya sexining navbatchi vakili tasdiqlaydi.

101. Ishlab chiqarish sexidan rafinasiya sexiga beriladigan yog’lardan o’rnatilgan usulda namuna olinadi va yog’ sifatining asosiy ko’rsatkichlari aniqlanadi. Smena davomida olingan ma’lumotlar asosida kunlik topshirish - qabul qilish dalolatnomasi tuzilib 15-shakl (ushbu Nizomga 15-ilova), u yog’ ishlab chiqarish sex boshligi va rafinasiya sexi boshligi tomonidan imzolanadi.

102. Yog’ning hisob-kitobi tayyor mahsulotlarni hisob-kitobini yuritish kitobida 16-shakl (ushbu Nizomga 16-ilova) natural massasi, hamda haqiqiy namlik va cho’kma miqdorida sifat bo’yicha, hamda turlari, nav va natural massada olib boriladi 17-shakl (ushbu Nizomga 17-ilova).

103. Ishlab chiqarilgan yog’lar turlari va navlari bo’yicha alohida-alohida saqlanadi.

104. Yog’ni saqlash jarayonida ularning navlarini o’zgarishini inobatga olib, yuklab jo’natishda, chiqim xujjatlarida yog’ning navi, yuklab jo’natilayotgan yog’ turkumi uchun laboratoriya tahlillari asosida ko’rsatiladi.

105. Ta’minlovchilardan keladigan rafinasiyalanmagan yog’, moy hom-ashyosi natural massada qabul qilinadi va birlamchi xujjatlarda ham natural massada va yog’ hisobida (namliksiz va cho’kmasisiz) 18-shakl (ushbu Nizomga 18-ilova) va 19-shakl

(ushbu Nizomga 19-ilova) bo'yicha qabul qilinadi. Korxonaga trafaret massasi bor idishlarda keltirilgan moyli hom-ashyo (chet eldan va o'zimizda ishlab chiqarilgan)ni qabul qilish, hisobga olish va ishlab chiqarishga berishni, agar tara lat yemagan va oqadigan bo'lmasa, trafaretda ko'rsatilgan massasi bo'yicha qabul qilishga ruxsat beriladi.

106. Yog'li xom-ashyo, soda mahsulotlari va sintetik moddalar sifati ta'minlovchining sifat guvohnomalari bilan aniqlanadi.

107. Moyli hom-ashyo va soda mahsulotlarini sifat ko'rsatkichlarida standart bo'yicha tasdiqlangan yo'l qo'ysa bo'ladigan chegaraviy me'yordan chetga og'ishlar mavjud bo'lsa, u holda kirim qilish qabul qiluvchining laboratoriya tahlil natijalari asosida amalga oshiriladi. Moyli hom-ashyo sifati tahlillari zaruriyat bo'lganda amalga oshiriladi. Qabul qilish dalolatnomasi bo'yicha belgilangan moyli hom-ashyo, soda mahsulotlarini haqiqiy ortiqcha miqdori kirim qilinadi va ta'minlovchiga xaq to'lanadi. Soda mahsulotlarini kirim qilish sifat ko'rsatkichlarining tahlil natijalariga asosan, uni 100 %li quruq mahsulotga qayta hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi.

108. Yuklar temir yo'l stansiyasida qabul qilinganda tijorat dalolatnomasi bilan tasdiqlangan kamomad bo'lsa, ta'minlovchi yoki temir yo'lga e'tiroz bildirishda, hisob bo'yicha pul to'langan yuk miqdoridan me'yorda belgilangan tabiiy yo'qotishlar chegirib tashlanadi.

109. Agar kamomad me'yor chegarasida bo'lsa, e'tiroz bildirilmaydi, kamomad bo'lsa, me'yordagi tabiiy kamayish hisobiga qoplanadi, agar bu miqdor kamlik qilsa, u holda yog', salomas va yog'li urug'larni brutto massasiga nisbatan 0,1 % tarozilarni tafovutiga ruxsat etiladi. Kunjara va shrot uchun  $\pm 0,5\%$  tarozilar tafovutiga ijozat beriladi.

110. Gidrozavodda ishlab chiqarilgan o'simlik yog'lari (rafinasiyalanmagan va rafinasiyalangan) hamda salomas to'liq qayta ishlov berish uchun mo'ljallangan bo'lsa, buxgalteriya hisobida xom-ashyo tarkibida O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartiga asosan hisobga olinadi (4-sonli BHMS) «Tovar-material zahiralari» (ro'yxat raqami 1595, 2006 yil 17 iyul, O'zbekiston Respublikasi qonun xujjalari to'plami).

111. Ushbu qayta ishlanishi kerak bo'lgan yog' va salomasni omborlar yoki moy xom-ashyosini qayta ishlash sexlariga o'tkazishda, birlamchi xujjatlarda natural va yog' hisobidagi (namlik va cho'kma og'irligisiz) massasini ko'rsatib rasmiylashtiriladi. Bu holda, yog' hom-ashyosini qayta ishlash sexi yoki omborlarda o'simlik yog'lari turlari bo'yicha moyli hom-ashyolarni hisobga olish kitobida 21-shaklda (ushbu Nizomga 21-ilova), natural va yog' hisobidagi massasi bo'yicha (namliksiz va cho'kma massasisiz) hisobga olinadi.

110. Kombinat tarkibiga kiruvchi sexlarda ishlab chiqarilgan va ushbu kombinatda keyingi qayta ishlashga qisman yuborilgan o'simlik yog'i va salomas, omborda natural massasi, sifati va sof yog' hisobidagi massasi bo'yicha qabul qilinadi va hisobga olinadi. Sexlarga yog' va salomasni berish, birlamchi xujjatlarda natural va yog' hisobidagi massasini ko'rsatib rasmiylashtiriladi.

111. Buxgalteriya hisobida ushbu korxonaning o'zida keyingi qayta ishlashga berilgan yog', salomas va texnik salomas yog' kislotalarining miqdori, ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha hom-ashyo hisobida yarim fabrikat sifatida aks etiriladi, tovar mahsulot tarkibida hisobga olinmaydi. Yog' ekstraksiya zavodlari va yog'-moy kombinatlarining tarkibida, o'zining alif pishiruvchi sexlari bo'lsa, o'simlik yog'i, alif pishirishga ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha beriladi.

112. Salomas, margarin mahsulotlari, sovun, stearin va h.k.larni ishlab chiqarish uchun, yog' va salomas, ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha hisobdan chiqariladi.

113. Kombinatga o'zida ishlab chiqarilganidan tashqari, yog' chetdan keltirilganda, ombordagi barcha yog'lar bo'yicha hisob natural va yog' hisobidagi massasi bo'yicha olib boriladi. Moyni qayta ishlovchi sexlarda yog' natural va moy hisobidagi massasi bo'yicha hisobga olinada 21-shakl (ushbu Nizomga 21-ilova). Zarurat bo'lganda keltirilgan hom-ashyodan namunalar olish 20-shakl (ushbu Nizomga 20-ilova) bo'yicha amalga oshiriladi.

## **7-mavzu. Ishlab chiqarish hisobotlarini tuzish va taqdim etish**

**Reja.** Ishlab chiqarish hisobotlari me'yor-qabul kartalari/ Hom-ashyoni qabul qilish dalolatnomalari. Tayyor va oraliq mahsulot va qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini topshirish dalolatnomalari. Ishlab chiqarish hisobotlari me'yor-qabul kartalari, hom-ashyoni qabul qilish dalolatnomalari, tayyor va oraliq mahsulot va qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini topshirish dalolatnomalari hisobi.

**Yog'-moy korxonalarida inventarizasiya o'tkazish tatribi. Inventarizasiya  
qaydnomalari (ro'yxatlari)**

114. Yog'-moy korxonalardagi sexlar (mustaqil bo'limlar) har oyda buxgalteriyaga hom-ashyo va materiallar harakati, ishlab chiqarilgan tayyor va oraliq mahsulotlar va asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar haqidagi hisobotni taqdim etadilar. Bu hisobotlar qisqacha «Sexning ishlab chiqarish hisoboti (mustaqil bo'lim) deb nomlanadi:

115. Ishlab chiqarish hisobotlari me'yor-qabul kartalari, hom-ashyoni qabul qilish dalolatnomalari, tayyor va oraliq mahsulot va qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini topshirish dalolatnomalari va boshqa xujjatlar, shuningdek hom-ashyo, mahsulot sifati va h.k.lar haqidagi laboratoriya ma'lumotlari asosida tuziladi. Tahlil va

boshqa ma'lumotlar laboratoriyanan sexlar, zavodlar, omborlarga tegishli ravishda rasmiylashtirilib (ko'rsatkichlarning to'liq nomi va raqamlar aniq qilib siyox bilan yoziladi), laboratoriya boshlig'i imzosi bilan tasdiqlangan holda beriladi.

116. Ishlab chiqarish hisobotlari buxgalteriya, Moliya iqtisod bo'limi MIB (**IIB**) va bosh texnolog tomonidan tekshirilganidan so'ng korxonaning bosh muhandisi imzolaydi, korxona raxbari tomonidan tasdiqlanadi.

117. Yog' ekstraksiya zavodining ishlab chiqarish hisoboti yog'li urug'larning kirimi va mahsulotni ombor yoki keyingi qayta ishlash uchun topshirish bo'yicha xujjatlar, inventarizasiya dalolatnomasi va laboratoriya tahlillari asosida, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'ini hisobga olib tuziladi 22 –shakl; (ushbu Nizomga 22-ilova).

118. Ishlab chiqarish hisoboti har oyda to'rt nus'hada tuziladi. Bittadan nus'ha buxgalteriya va reja bo'limiga, bir nus'hasi yog' zavodi (sex) boshlig'ida qoladi, hisobotning bir nus'hasi yuqori tashkilotga taqdim qilinadi.

119. Qayta ishlangan urug'lar miqdori haqiqiy namlik, mineral va organik aralashmalarni hisobga olgan holda ko'rsatiladi.

120. Urug'larga zavod (sex)dagi mavjud haqiqiy yog'li urug', shuningdek, haqiqiy massasi va laboratoriya tahlillari asosida aniqlangan haqiqiy namlik, organik va mineral aralashmalar miqdoridagi yog'lilagini yog'li urug'ning ekvivalent miqdoriga aylantirilgan miqdoridagi (o'rtacha oylik sifati) mag'iz, yanchilma, mezga, fuza, missella kiradi.

121. Hisobotda urug'larning yog'lilik, nuqsonlilik, namlik va tuklilik ko'rsatkichlari laboratoriya ma'lumotlari asosida qo'yiladi.

122. Mahsulotlar – rafinasiyalanmagan yog', shrot (kunjara), shulxani chiqishi tarozida tortish bilan aniqlanadi.

123. Tabiiy yo'qotishlar qayta ishlangan urug'lar miqdori bilan olingan yog', shrot (kunjara), shulxaning qiymati o'rtasidagi farqi bilan aniqlanadi.

$$S_p = \text{Urug'lar miqdori} - (V_m + V_{\text{shr}} + V_{\text{shel}})$$

124. Yog'ning umumiyo yo'qotilishini urug'lar tarkibidagi yog' (yog'liligi) va rafinasiyalanmagan yog'ning chiqishi o'rtasidagi farqiga asosan aniqlanadi.

$$O_p = M_s - F$$

bunda:  $M_s$  – urug'lar yog'liligi, % da

$F$  – yog'ning xaqiqiy chiqishi, % da

125. Yog'ning umumiyo yo'qotilishi shrot (kunjara)da, shulxada yog' yo'qotilishini va hisobga olinmagan yo'qotishlarni o'z ichiga oladi.

$$O_p = P_{\text{shr}} + P_{\text{shel}} + N$$

bunda:  $P_{\text{shr}}$  – shrotdagi yog'ning qolgan miqdori, % da

$P_{\text{shel}}$  - shulxadagi yog'ning qolgan miqdori, % da

N - hisobga olinmagan yo'qotishlar, % da

126. Shrot (kunjara)da yoki shulxadagi yog'ning qoldiq miqdori qo'yidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_{\text{shr}} = \frac{M_{\text{shr}} \times Sh}{100}; \quad P_{\text{shel}} = \frac{M_{\text{shel}} \times L}{100}$$

bunda:  $P_{\text{shr}}, P_{\text{shel}}$  – shrot (kunjara), shulxada qolgan yog' miqdori, % da

$M_{\text{shr}}$  va  $M_{\text{shel}}$  - shrot (kunjara), shulxaning yog'liligi % da

Sh – shrot (kunjara) chiqishi % da

L - shulxa chiqishi % da.

127. Shrot va shulxani yog'liligi laboratoriyada aniqlanadi.

128. Shrot va shulxaning chiqishi formula bo'yicha % da urug'lar massasiga nisbatan aniqlanadi:

$$Sh = \frac{tn.\text{da shrot miqdori} \times 100}{Urug'\text{lar miqdori}}; \quad L = \frac{tn.\text{da shulxa miqdori} \times 100}{Urug'\text{lar miqdori}}$$

129. Hisobga olinmagan yog'ni yo'qotilishi yog'ning umumiy yo'qotilishi miqdori va shrot (kunjara) va shulxadagi yog'ning yo'qotilishi yig'indisi o'rtasidagi farq bilan aniqlanadi:

$$N = O_p - (P_{\text{shr}} + P_{\text{shel}})$$

Masalan: urug'larning yog'liligi – 20 %, yog' chiqimi – 18,96 % bo'lsa, yog'ni umumiy yo'qotilishi (20,0 - 18,96) = 1,04 % ni tashkil qiladi.

Shrot yog'liligi 1,1%, shrot chiqimi 45,0 %, bunda shrotda yog'ni yo'qotilishi

$$\frac{1,1 \times 45}{100} = 0,49 \% \text{ ni tashkil qiladi.}$$

Shulxa yog'liligi 1,8%, shulxa chiqimi 30,05%, shulxada yog'ni yo'qotilishi

$$\frac{1,8 \times 30,05}{100} = 0,54 \% \text{ ni tashkil qiladi.}$$

Yog'ni shrot va shulxada yo'qotilishi:  $0,49 + 0,54 = 1,03 \%$

Yog'ni hisobga olinmagan yo'qotilishi  $1,04 - 1,03 = 0,01 \%$

130. Ishlab chiqarish hisobotini sex (zavod) boshlig'i va laboratoriya rahbari imzolaydi. Hisobot buxgalteriya tomonidan tekshirilib, qabul qilinadi. Bosh muxandis xulosa beradi va hisobot direktor tomonidan tasdiqlanadi.

131. Har chorakda ishlab chiqarish hisoboti ma'lumotlariga asosan xom-ashyoni ishlatalishi va yog' chiqishi haqidagi 23-shakl bo'yicha hisobotlar tuziladi (ushbu

Nizomga 23-ilova), bajaruvchining familiyasi va telefon raqami ko'rsatilgan holda korxona rahbari tomonidan imzolanadi.

132. Hisobot tuzish va ishlab chiqarish ustidan nazorat qilish maqsadida, har oy sexlar (bo'limlar)da inventarizasiya o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti «Inventarizasiyanı tashkil etish va o'tkazish» (ro'yxat raqami 833, 1999 yil 2 noyabr)ga asosan korxona rahbarining buyrug'i bilan tayinlangan komissiya inventarizasiya o'tkazadi va dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Ishlab chiqarishda oy oxirida qolgan xom-ashyo, materiallar, tayyor mahsulot, oraliq mahsulot, yarim mahsulot va chiqindilarning qoldiqlari inventarizasiya qilinishi lozim. Hisobot oyida qayta ishlangan xom-ashyo va asosiy materiallar miqdori ularning oy boshida qolgan qoldig'iga oy davomida kirim qilingan miqdorni qo'shib, oy oxiriga qolgan qoldiqni ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Sexlarda oy oxirida xom-ashyo, materiallar, yarim mahsulotlar qoldiqlari inventarizasiyadan o'tkaziladi. Inventarizasiya qilinayotganda yarim mahsulotlar xom-ashyoga hisoblanadi. Bundan tashqari quyidagilar ham inventarizasiya qilinadi:

- a) yarim mahsulotlar (presslash sexlari yoki zavodlarning, shu korxonada yoki yog' ishlab chiqaradigan sex (zavod)da qayta ishlanadigan mag'iz, yanchilma, missella, rafinasiyalanmagan yog', fuz, kunjara);
- b) sovun ishlab chiqariladigan sex (zavod)dagi tindiriladigan maxsus idishlardagi sovun;
- v) yog' ekstraksiya zavodidagi, gidrozavod va yog'- moy kombinatning rafinasiya sexidagi rafinasiyalangan yog'.

Gliserin ishlab chiqarishdagi gliserin qoldig'i hom gliserin hisobida hisoblanadi.

133. Yog' xom-ashyosi, yog' o'rnini bosuvchi moddalar va tarkibida yog' bo'lgan chiqindilarni ishlab chiqarishga berish va topshirish korxona buxgalteriyasida qayd qilinib, nomerlanadigan va har oyda tilxat bilan ombor va sexlarga topshiriladigan ishlab chiqarishda qabul kartalari bilan rasmiylashtiriladi. Oy davomida foydalanimagan qabul kartalari buxgalteriyaga qaytariladi.

134. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar turkumiga standart talablariga javob beradigan, texnik nazorat bo'limi (TNB) tomonidan qabul qilingan va omborga topshirilgan yoki boshqa sexlarga berilgan mahsulotlar kiradi.

135. Omborlarda saqlash jarayonida yaroqsizligi aniqlangan va ichki dalolatnoma bilan rasmiylashtirilgan sovun va margarin mahsulotlari zudlik bilan qayta ishlangan korxonaning o'ziga qayta ishlashga topshirilishi lozim. Yaroqsiz mahsulotni ombordan ishlab chiqarishga topshirish yuk xati bilan rasmiylashtiriladi.

136. Ushbu mahsulotning sertifikat (sifat guvohnomasi) bo'yicha sotilish muddati davomida xaridor tomonidan korxona aybi bilan yaroqsizligi aniqlanganda va ikki

tomonlama dalolatnama bilan rasmiylashtirilgan bo'lsa, korxona omboriga qayta ishlash uchun qabul qilinadi. Ushbu yaroqsiz mahsulotlarni omborlardan ishlab chiqarishga berilishi ham yuk xati bilan rasmiylashtiriladi.

137. Yalpi va tovar mahsulotlarining tarkibi yaroqsiz mahsulot qaysi oyda aniqlangan bo'lsa, o'sha oyda natura va pul ifodasida kamaytiriladi.

138. Mahsulot (o'simlik yog'i, margarin mahsulotlari) sotilishi (yuklab jo'natilishi)da uning birlamchi navi o'zgargan holatda, nav o'zgarishi aniqlangan oyda yalpi va tovar mahsuloti tarkibiga o'zgartirish kiritiladi.

139. Oy oxirida rafinasiya sexidagi rafinasiyalangan moy qoldiqlari yog' xomashyosi (rafinasiyalanmagan yog')ga hisoblanadi.

140. Tayyor mahsulotlar sexlardan omborlarga, korxonada belgilangan usul (transporter orqali, avtokaralar, nasos vositasida bir joydan boshqa joyga o'tkazish va x.k.)da, massasi bo'yicha (korobkalarga, yashiklarga, bochkalarga, butilkalarga va h.k.ga joylashtirilgan mahsulot hisob va massasi bo'yicha) topshiriladi. 26

141. Tayyor mahsulotni joylash uchun mo'ljallangan idishlar massasi, mahsulot joylashtirilishidan avval sexlarda tekshiriladi va tortiladi. Trafaret yorlig'ida yoki tamg'asida amaldagi standartlarda belgilangan ma'lumotlar ko'rsatiladi.

142. Sovun ishlab chiqarish korxonalarida,sovun joylashtiriladigan qutilar massasi o'lchanmaydi.

143. Idishlarga joylashtirilgan mahsulot omborga trafaretda ko'rsatilgan massai bo'yicha topshiriladi. Sovun joylangan quti ustida sovun bo'lagining nominal massasi va qutidagi sovun bo'laklari soni ko'rsatiladi.

144. Tayyor mahsulot, oraliq mahsulot va chiqindilarni berilishi (yuklab jo'natilishi), yog'-moy sanoati korxonasi tomonidan mahsulot yetkazib berish haqida tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

145. Mahsulot berish (yuklab jo'natish)ni rasmiylashtirish belgilangan tartibda 24-shakl (ushbu Nizomga 24-ilova) buyruq bo'yicha schet-fakturalar, ixtisoslashtirilgan tovar-transport yuk xatlari va boshqa kuzatuvchi xujjatlarni yozish bilan amalga oshiriladi.

146. Haridor tomonidan mahsulot og'irligi tara trafaretida ko'rsatilgan og'irligga to'g'ri kelmasligi aniqlansa, yuk jo'natuvchi tomonidan farq sinchiklab o'rganilib, uning yuzaga kelish sabablari tekshiriladi.

147. Haridor tomonidan aniqlangan va korxona tan olgan mahsulotning kamomad summasi, keyinchalik kamomadni yuzaga kelish sabablari hamda aybdor shaxs aniqlanib, qonunda belgilangan tartibda zararni aybdordan undirish sharti bilan, kamomadlar va qiymatliklarni buzilishidan yo'qotishlar hisobiga olib boriladi.

148. Haridorlar tomonidan temir yo'l sisternalariga yuklab jo'natilgan

mahsulotlar (yog'lar, olif va h.k.) bo'yicha me'yordan yuqori kamomadga shikoyat olingan taqdirda, yuk jo'natuvchi kamomadni yuzaga keltirib chiqargan sabablarni sinchiklab o'rganiishi, zaruriyat tug'ilganda esa korxona omborlaridagi qolgan mahsulotlar qoldig'ini inventarizasiya qilishi lozim.

149. Shikoyat tushganda qolgan yog', olif va x.k.larni tarozida o'lchab inventarizasiya qilish imkoniyati bo'lmasa, tan olingan kamomad kamomadlar va qiymatliklarni buzilishidan yo'qotishlar hisobiga olib boriladi.

150. Buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-son BHMS) «Inventarizasiyani tashkil etish va o'tkazish» (ro'yxat raqami 833, 1999 yil 2 noyabr)ga asosan, omborlardagi tayyor mahsulotlarga bir yilda kamida bir marta inventarizasiya o'tkaziladi.

151. Korxona rahbari va bosh hisobchisi inventarizasiyani to'g'ri va o'z vaqtida o'tkazilishi uchun javobgardirlar.

152. Inventarizasiya natijalari bo'yicha tayyor mahsulotlarda ortiqchasi aniqlanib, ular yuk jo'natishda kam yuklanganligi sababli vujudga kelgan bo'lsa, avval kamomad qiymatliklarni buzilishidan yo'qotishlari hisobiga kiritilgan summa storono usulida tuzatiladi.

153. Inventarizasiya natijalari vedomostida ortiqcha chiqqan mahsulotni umumiyligi, shu jumladan yuk jo'natilgandagi kamomadni qoplashga yo'naltirilgan qismi ko'rsatiladi. Inventarizasiya natijasida aniqlangan ortiqchalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish Inventarizasiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasingning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 1334, 2004 yil 6 aprel, O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami, 2004 yil, 14-son, 173-modda)ga asosan amalga oshiriladi. Yillik hisobotga tushuntirish xatida mahsulotlarning kam yuklab jo'natilganligi va omborlardagi mahsulotni ortiqcha qismlari vujudga kelishi sabablari batafsil ko'rsatilishi hamda mahsulotlarning yuklab jo'natilmay qolishi va mahsulot ortiqchaliklari vujudga kelishini oldini olish uchun ko'rileyotgan chora-tadbirlarni to'liq yoritib berilishi lozim.

154. Yuklab jo'natilgan mahsulot kam ortilganda kamomadni qoplash uchun ortiqcha mahsulot bo'lmasa, aybdorlardan kamomad qiymatini qonunda belgilangan tartibda undirish uchun materiallar tergov organlariga topshiriladi

## **8 mavzu. Baklarni tozalash dalolatnomasini rasmiylashtirish**

**Reja.** Baklarni tozalash dalolatnomasiga asosan hisobdan chiqarish. Ombordan fuzani ishlab chiqarishga qayta ishlashga topshirilishi qabul kartalari bilan rasmiylashtirish. Inventarizasiya bo'yicha komissiya 16-shakl.

162. Barcha yog'-moy korxonalarida yog' va moy saqlanadigan tovar baklariga va boshqa idishlarga albatta tozalash o'tkaziladi. Tozalash har bir tovar baki (idishi) yog' va moydan bo'shatilganidan so'ng o'tkaziladi va tozalash dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Tozalash natijalari omor va buxgalteriya hisoblarida aks ettirilishi lozim.

163. Korxona uchun belgilangan muddatlarda, yilda bir marta barcha tovar baklarini tozalash va avvalgi tozalash sanasidan keyingisigacha bo'lган muddat ichida barcha yog' va boshqa moylar aylanmasi bo'yicha natjalarni aniqlash bilan omor va sexlardagi moy xom-ashyosini tarozilarda tortib, yillik inventarizasiya o'tkaziladi.

164. Idishlarda yog'ni tindirilishida o'z tarkibida mag'iz qovurilmasi, shrot, chigit kunjarasi va yog'dan iborat cho'kindilar hosil bo'ladi. Ushbu cho'kindi fuza deb nomlanadi va og'irligi tortilishi lozim. Fuzadagi moy, namlik va cho'kindi miqdorini laboratoriya aniqlaydi.

165. Baklarni tozalash dalolatnomasiga asosan qo'yidagicha hisobdan chiqarish amalga oshiriladi:

yog' ekstraksiya zavodlarida yog' fuzga naturada hisobdan chiqariladi, fuza natura va yog'larda kirim qilinadi. Yillik inventarizasiya vaqtida baklarni tozalash dalolatnomasini tuzishda, avvalgi tozalash vaqtidan buyon butun oborot bo'yicha yog' miqdori undagi namlik, cho'kindi va yog' tarkibi bilan aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichlar berilgan 27-shakl (ushbu Nizomga 27- ilova) va 28-shakl (ushbu Nizomga 28-ilova) shakllardan olinadi. Fuzadagi namlik asoslanmagan miqdorda oshganligi aniqlangani taqdirda, komissiya buning sabablarini aniqlab, tegishli hulosalar chiqaradi va fuza hisobiga chiqariladigan yog' miqdorini aniqlaydi;

kombinatlarda yog' va boshqa yog'lar fuzga moydagi massasi bo'yicha hisobdan chiqariladi. Baklar tozalanishi jarayonida yog'lardagi namlik tarkibi oshishi (baklarni bo'shatish jarayonida yog'larni isitishda bug'ni qo'llash natijasida) hisobiga natura massasi bo'yicha kitobdag'i kirim va chiqim qismlarida farq aniqlansa, kirim qismidagi natura massasiga tegishli tuzatishlar kiritiladi.

166. Ombordan fuzani ishlab chiqarishga qayta ishlashga topshirilishi qabul kartalari bilan rasmiylashtiriladi. Yog' ekstraksiya zavodi (sexi)ni kapital ta'mirlashga to'xtatilishidan oldin sex uskunalarini va baklarni tozalashdan olingan fuz omborga natura va moylardagi massasi bo'yicha topshiriladi.

167. Bak tozalanishi dalolatnomasi 28-sonli shaklda (ushbu Nizomga 28-sonli ilova) korxona raxbarining moddiy javobgar shaxslar ishtirokidagi buyruq bilan belgilangan komissiya tomonidan tuziladi.

168. Bakni tozalashda tarozida tortish yo'li bilan bak cho'kindisi (fuz)ning natura massasi aniqlanadi.

169. Laboratoriya fuzdagi yog', namlik va cho'kindi tarkibini aniqlaydi.

170. Bakni tozalash dalolatnomasini korxona rahbari tasdiqlaydi.

171. Tovar baklari (idishlar)ni tozalash inventarizasiya dalolatnomasi 27-shakl (ushbu Nizomga 27-ilova), korxona rahbarining moddiy javobgar shaxs ishtirokida tayinlagan komissiya tomonidan tuziladi.

172. Inventarizasiya bo'yicha komissiya 16-shakl (ushbu Nizomga 16-ilova) bo'yicha baklar aylanmasi bo'yicha o'tkazilgan fuz qoldig'idagi moyning mavjudligini, moyning miqdorini mosligini tekshiradi va dalolatnomaga yog'lar saqlanganligi haqida o'z xulosasini beradi. Bakni tozalashda bak cho'kindisi (fuz)ning natura massasini tarozida tortish yo'li bilan aniqlanadi. Undagi yog', namlik va cho'kindi tarkibini laboratoriya aniqlaydi.

173. Ushbu dalolatnomani tuzishda oraliq tozalash (28-shakl; 28-ilova) dalolatnomalaridan va 16-shakl (ushbu Nizomga 16-ilova) ma'lumotlaridan foydalilanadi.

174. Massaning me'yor chegarasidagi kamayishi hisob-kitobi dalolatnomaga ilova qilinadi. Dalolatnomada korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

175. Faqatgina o'zida ishlab chiqarilgan yog' bilan operasiyalarni amalga oshiradigan yog'-moy korxonalarida fuzga o'tkazilgan yog'ning haqiqiy miqdori va qiymatiga buxgalteriya storono yozuvi yo'li bilan bir vaqtning o'zida asosiy ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish schetida hisobga olingan asosiy ishlab chiqarish xarajatlari ko'payishi bilan tayyor mahsulotlarni hisobga olish schetida hisobga olingan tayyor mahsulotning tannarxi kamayadi.

176. Ta'minotchilardan qabul qilingan yog'ni qayta ishlovchi yog'-moy kombinatlarida baklardagi hosil bo'lgan fuz xom-ashyo va material (yog')larni hisobga olish analitik schetidan natura va moy massasi bo'yicha hisobdan chiqariladi va haqiqiy yog' tannarxi bo'yicha natura va moy massasi bo'yicha xom-ashyo va materiallar (fuz)ning analitik schetiga hisobga kiritiladi. O'zida ishlab chiqarilgan va korxonaning o'zida qayta ishlashga topshiriladigan yog'ning saqlanishida hosil bo'lgan fuz ham xuddi shu tartibda hisobga olinadi. Ushbu holatda yalpi va tovar maxsulotlarning tarkibiga o'zgarishlar kiritilmaydi.

177. 22-shakl (ushbu Nizomga 22-ilova) bo'yicha ishlab chiqarish hisobotida qayta ishlangan fuz, yog' va shrot (kunjara)ning miqdori alohida satrlarda ko'rsatiladi. Sex (zavod) boshligi fuzni qayta ishlashdan olingan yog' va shrot (chigit kunjarasi) miqdorini hisob-kitob bilan aniqlaydi va ishlab chiqarish xisobotiga ilova qiladi. Fuzni ombordan ishlab chiqarishga xujjatlarsiz yog'ga almashtirishga topshirish taqiqlanadi.

178. Rejadagi me'yor bo'yicha yog'ning chiqishi, qayta ishlangan yog'li urug'ni o'rtacha oylik yog'liligi asosida topilgan o'rtacha yog'liligi va rejadagi umumiyy

yo'qotishlar me'yori o'rtasidagi farqi bilan aniqlanadi.

179. Yordamchi materiallarni inventarizasiya natijalari bo'yicha har oyda yordamchi materiallar harakatining 29-shakl bo'yicha (ushbu Nizomga 29-ilova) oylik hisoboti tuziladi.

## **9-mavzu. Yog‘ va moylar gidratatsiyasi va rafinatsiyalash jarayonining qayd va hisoboti**

**Reja.** Gidratlanmagan va gidratlangan yog‘lar, chiqindilar hisobini yuritish. Yog‘ni gidratatsiyalab ishlab chiqarish bo'yicha hisobot. Tortilmalar kitobini yuritish. Namunaviy rafinatsiyalash jarayonida qayd va hisobot.

Gidratlanmagan va gidratlangan yog‘lar, chiqindilar hisobini yuritish. Yog‘ni gidratatsiyalab ishlab chiqarish bo'yicha hisobot. Tortilmalar kitobini yuritish. Namunaviy rafinatsiyalash jarayonida qayd va hisobot. Rafinatsiya uchun kerak bo‘ladigan ishqorlarni nazariy hisob kitobi. Ishlab chiqarish hisobotlarini olib borish. Yog‘ va moylarni oqlash va xidsizlantirish jarayonidagi qayd va hisobot. Soapstokni qayta ishslash, yog‘ kislotalari olish jarayonlarini qayd hisoboti. Xom ashyo, yordamchi materiallar, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hamda chiqindilarni qayd va hisoboti.

### **Yog‘lar gidratasiyasini hisobini yuritish**

Yog‘larni gidratlash, yog‘lardan fosfatidlarni ajratib olish maqsadida amalga oshiriladi. U kompleks rafinasiya jarayonining birinchi bosqichini o‘zida ifodalab, nafaqat rafinasiyalangan yog‘ning sifatini balki, uning keyingi qayta ishslash bosqichining samaradorligini ham oldindan aniqlab beradi.

O’simlik yog‘lari anchagina miqdordagi fosfatidlarni o‘z ichiga oladi: Paxta yog‘i  $0,5 \div 2,5\%$ , soya yog‘i  $3,5\%$  gacha, kungaboqar yog‘i  $0,2 \div 1,4\%$ . Yog‘larning unumli texnologiyasida ozuqaviy o’simlik yog‘laridagi fosfatidlarni saqlanib qolinishini hisobga olish kerak, chunki ular yog‘ va xolesterin almashinuvida faol qatnashadi, ovqatni hazm qilinishini tezlashtiradi, hamda asab tolalarining zaruriy qismi hisoblanadi.

Rafinasiyanmagan yog‘ gidratlash uchun og’irligi bo'yicha beriladi va tortilmalar kitobidagi yozuvlar asosida me'yor kartasi bilan rasmiylashtiriladi. Unda namlik, og’irligi bo'yicha cho'kma va fosfolipidlar miqdori aniqlanadi.

Tayyor mahsulot bo‘lib, omborlarga yoki boshqa sexlarga keyinchalik qayta ishslash uchun qabul qilingan gidratlangan yog‘ va fosfatid konsentratlari (ozuqaviy va yembop) hisoblanadi.

Yog‘larni gidratlangandagi chiqindilar (gidrofuz) fosfatid konsentrati olish uchun qayta ishlanishi lozim.

Agarda gidratlash sexi (bo‘lim) alohida ajratilgan bo‘lsa, oy oxirida yog‘ni gidratlash sexi (bo‘lim) bo'yicha ishlab chiqarish hisoboti (34-shakl) tuziladi. Bu hisobotning boshlang‘ich ma'lumotlari bo‘lib, me'yor kartasi, tayyor mahsulot topshirilganligi haqidagi dalolatnomalar, gidratlangan yog‘ni inventarlashlash dalolatnomalari hisoblanadi.

Gidratlangan yog‘ tannarxini hisoblashda fosfatid konsentratlari oraliq mahsulot sifatida ko'rsatilib, ulgurji narxda baholanadi.

Gidratlash sexida yog'ni tozalash qisman gidratlash usulida olib borilganda, rafinasiyalanmagan yog' gidratlash sexiga, yog'ni ishlab chiqarishni yagona texnologik siklida tarozida tortmasdan va tortilmalar kitobida (8-shakl) hisobga olinmasdan uzatiladi. Tayyor mahsulot bo'lib, og'irligi bo'yicha omborxonaga berilgan rafinasiyalanmagan yog' hisoblanadi. Qisman gidratlashda olinadigan oraliq maxsulotlar – fosfatid konsentratlari (ozuqaviy va yembop) va ishlab chiqarish chiqindilari – gidrofuz, omborlarga yoki keyinchalik qayta ishslash uchun boshqa sexlarga natural og'irligi bo'yicha (cho'kmasiz va namliksiz) beriladi va ishlab chiqarish hisobotida hisobga olinadi (29-shakl).

## TASDIQLAYMAN

Rahbar \_\_\_\_\_  
 «\_\_\_\_\_» 200 y.

(korxona nomi)

## YoG'NI GIDRATASIYaLAB IShLAB ChIQARISH BO'YIChA HISOBOT

200 y. oyi uchun (kg da)

T.r.	Yog' turi	O' Ichov birligi	Narx	Oyning boshidagi qoldiq	Sexga kelib tushdi	miqdori	summasi	Oyning oxiridagi qoldiq	Ishlab chiqarildi			Topshirildi			Fosfatid konsentratlari sifati, %			
									gidratasiyalan-gan yog'	Fosfatid konsen-tra-ti	Gidratlangan yog'	Fosfatid konsentrati						
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	vazni	%	om-borga	boshqa sexlarga	om-borga	boshqa sexlarga	yog' miqdori	namligi	kisloto soni, mg KON

\* namlik hisobiga yog' balansi

Ma'lumot:

Dastlabki yog'dagi fosfatid miqdori

Sex boshlig'i: \_\_\_\_\_

Lab. boshlig'i: \_\_\_\_\_

Hisobot bo'yicha xulosa: \_\_\_\_\_

Bosh muhandis: \_\_\_\_\_

Umumiyl fosfatid konsentrat miqdoridan

ozuqaviy: \_\_\_\_\_ kg

shu jumladan: I-nav: \_\_\_\_\_

II -nav: \_\_\_\_\_

yemga oid: \_\_\_\_\_

Hisobotni ilova qilingan: \_\_\_\_\_ hujjatlar

bilan qabul qildi va tekshirdi hisobchi\_\_\_\_\_

8-shakl

**TORTILMALAR KITOBI**  
 (xomashyo, tayyor mahsulot, oraliq mahsulot, chiqindilar) nomi

Topshi-rish sanasi	Tortil-ma raqami	Smena, brigada	Tortilma yoki aylanmalar hisobi ko'rsatkichlari			Bunker- ning o'rtacha tortil-masi	Jami ishlab chiqarishga qabul qilindi, omborga topshirildi	Imzo		Topshi-rish bo'yicha hujjat raqami
			qayta tortishning boshida (a)	qayta tortishning oxirida (b)	aylanma qayta tortil- malar miqdori (b- v)			topshi- ruvchi	qabul qiluvchi	
			brutto	Tara	netto					
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11

Tortilmalar kitobi, texnik paxta chigitini paxta zavodlaridan yog' zavodlariga qabul qilinayotganda avtomatik va oddiy tarozilarda tortishlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun xizmat qiladi.

Avtomatik tarozilarda tortishda, tortilmalar sonini hisoblagichning ko'rsatkichi smena boshida va ohirida paxta zavodi va yog' zavodi smena tarozibonlari tomonidan tortilmalar kitobiga yoziladi. Smenada kamida bir marta nazorat tortishi ya'ni har bir avtotarozida uch marta tortish amalga oshirilib, paxta zavodi va yog' zavodi tarozi ustalari imzolari bilan tortilmalar kitobiga yoziladi.

Smena oxirida paxta zavodidan qabul qilingan chigitni, jami miqdori hisoblanib, paxta zavodi va yog' zavodi smena tarozibonlari tomonidan tasdiqlanadi.

Oddiy tarozilarda tortishda 4-7 ustunlar to'ldirilmaydi.

Tortilmalar kitobi yuritilishining to'g'riligini va bu yozuvlarning dalolatnomalarda ko'rsatilgan miqdori bilan muvofiqligi hisobxona tomonidan tekshirilib, tortilmalar kitobida tekshirgan xisobchi imzosi bilan belgi qo'yiladi.

Tortilmalar kitobi raqamlangan, ip o'tkazib tikilgan, muhr va bosh hisobchi imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Barcha varaqlar to'lgandan so'ng, kitob arxivga topshirilib, belgilangan vaqt davomida saqlanadi.

(korxona nomi)

TASDIQLAYMAN:

Rahbar \_\_\_\_\_ «\_\_\_\_\_» 200\_y. uchun yog'-moy kombinati (yog' ekstraksiya zavodi, yog' zavodi) ning  
ishlab chiqarish

HISOB OTI

# YoG' EKSTRAKSIYa (YoG') IShLAB ChIQARISH

Paxta chigit	O'sim-lik shifri	Qayta ishlan-gan chigit, kg	Chigit sifati				1 tn chigit uchun erituvchi sarfi reja haqiq.	Mahsulot chiqishi, kg				Yog'ni ng kislo-ta soni, mg KON	Ishlab chiqarishda yog'ning yo'qolishlari, kg								
			Yog'lilik, %	org. va min. aralash %	namlik, %	Tukdo rlik, %		rafinasiyalan magan yog'	shrot (kunjara)	shulxa	xomashiyoy yo'qotishlar		jami		shu jumladan xakiqiy						
			1	2	3	4		5	6	7	8		9	10	11	12	13	14	15	16	17
1 nav		9223																			
2 nav		-																			
3 nav		1362																			
4 nav		1838																			
Nostandard		550																			
Jami		12973	18,81	7,94	9,42	8,35	6,7	2312,9	5200,0	4680,0	780,1	6,71	129,7	127,3	55,6	69,0	2,7				
								7,0	17,82	40,08	36,08	6,02			1,00	0,99	0,43	0,55	0,01		

Ma'lumot

## Chigit massasiga nisbatan

## 1. Shrot yog'liligi (kunjara), % amalda

yog' balansi, % da  
Yog'ni chiqishi

reja bo'yicha  
2 Shulxa vog'liligi. %

Yog' yo'qotishlar, jami  
Shu iumladan: shrot (kuniara)da

a  
oo'yicha  
Zayod (sex) boshligi:

Zaved (sx) bosning 1.  
Lab. mudiri:  
Hisobotni tekshirdi va qabul qildi; hisobchi

### Xomashyo balansi, % da

Yog'ni chiqishi

### Shrotni (kunjara) chiqishi

## Shulxani chiqishi

## Xomashyoviy yo'qotishlar

## Hisobot bo'yicha xulosa Bosh muhandis

## **Yog' va moylarning rafinasiyasini hisobini yuritish**

Yog'larni (rafinasiyalanmagan, yaroqsiz va shu k.) rafinasiyaga uzatish natural va yog' hisobidagi og'irligi (namliksiz va cho'kmasiz) bo'yicha belgilangan me'yoriy karta (35-shakl) bilan rasmiylashtiriladi.

Rafinasiya sexidan rafinasiyalanmagan yog'ni keyinchalik qayta ishlash uchun zavodning boshqa sexlariga uzatish belgilangan me'yor kartasi bilan, chetga chiqarish esa tayyor mahsulot ombori orqali rasmiylashtiriladi.

Rafinasiyalangan yog' natural va yog' hisobidagi og'irligi bo'yicha hisobga olinadi. Ishlab chiqarilgan rafinasiyalangan yog'ni standart ko'rsatkichlariga muvofiqligi laboratoriya tahlili bilan aniqlanadi.

Qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilari (soapstok, ishlatilgan oqlovchi tuproq, filtrashdagi qoldiqlar va shu k.) natural va yog' hisobidagi og'irligi bo'yicha hisobga olinadi. Tovar baklari va sig'implari tozalangandan keyin, (27<sup>a</sup>-shakl) bo'yicha dalolatnama tuziladi. Soapstok va boshqa yog'li xomashyolar sovun pishirish uchun qardosh korxonalardan yoki tashqaridan keltirilganida (35<sup>a</sup>-shakl) bo'yicha qabul orderi to'ldiriladi. Kamomad yoki ortiqcha miqdor hosil bo'lganida (35<sup>b</sup>-shakl) bo'yicha soapstokni qabul qilish dalolatnomasi tuziladi. Qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini omborga topshirish dalolatnama (36-shakl) bilan rasmiylashtiriladi. Qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini keyinchalik qayta ishlashga (distillyasiyalash, sovun pishirish va shu k.) uzatilganda rasmiylashtirish belgilangan me'yor kartasi (35-shakl) bilan amalga oshiriladi. Baklarni (27-shakl) tozalash bo'yicha amalga oshiriladi.

Chetga sotish (realizasiya) uchun mo'ljallab ishlab chiqarilgan rafinasiyalangan yog' yalpi va tovar mahsulotlar tarkibiga kiradi. Bunday hollarda yalpi va tovar mahsulotlar hajmi, rafinasiyalangan tovar yog'larni mos narxlarda qayta hisoblash bilan aniqlanadi. Bir vaqtning o'zida yalpi va tovar mahsulot tarkibidan rafinasiyalanmagan yog', agar u oldin yalpi va tovar mahsulot tarkibiga qo'shilgan bo'lsa yoki taminlovchidan olingan bo'lsa, natural va pul ko'rinishida chiqarib tashlanadi.

Chetga sotiladigan oraliq mahsulotlar, yalpi, tovar va sotiladigan mahsulotlar tarkibiga kiritiladi. Rafinasiyalashda olingan qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilari va oraliq mahsulotlar, keyinchalik qayta ishlashga shu korxonani o'ziga berilsa, ular yalpi va tovar maxsulotlar tarkibiga qo'shilmaydi.

Margarin zavodi tarkibiga kiradigan rafinasiya sexi yoki aloxida ajratilgan, mustaqil bo'limlarda rafinasiyalangan yog'lar margarin maxsulotlari ishlab chiqarishga to'liq beriladigan rafinasiya sexi bo'yicha alohida hisobot tuziladi. Bu hisobot (batafsil, xom ashyodan boshlab) ma'lumotlari ishlab chiqarilgan margarin maxsulotlarini kalkulyasiya hisobotlariga kiritiladi.

Yog' zavodidagi rafinasiya sexi (mustaqil hisoblanuvchi) mahsulotlari yalpi va tovar maxsulotlar tarkibiga kirganda ham alohida ishlab chiqarish hisoboti (37-shakl) tuziladi.

Har oyda rafinasiya sexida tarozida tortish yoki aniq o'lchash yo'li bilan xomashyo va oraliq mahsulotlar qoldiqlarini inventarlash o'tkaziladi. Hisobga olish ma'lumotlari asosida sex boshlig'i, oy oxirida rafinasiya sexining ishlab chiqarish hisobotini tuzadi (37-shakl), unda mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ma'lumotlar va

yog' balansi keltiriladi. Hisobotni tuzishda yog' va moylarning qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilar va yo'qotishlarni haqiqiyisi (xom yog' miqdori va tayyor mahsulot orasidagi farq bo'yicha olinadi) va me'yorlangani ko'rsatiladi. Me'yorlangan chiqindilar har yili tarmoq boshqarmalari tomonidan tasdiqlanadigan chiqindilar va yo'qotishlar me'yoriga mos ravishda haqiqiy qayta ishlangan yog'larning turi va sifatiga muvofiq ko'rsatiladi.

Yog' va moylarni rafinasiya jarayonida tejash (yoki ortiqcha sarf qilish), miqdori (chiqindida va yo'qotishda) haqiqiy chiqindilarni me'yordagilar bilan va haqiqiy qaytarilmaydigan yo'qotishlarni rejadagi bilan solishtirish orqali aniqlanadi.

## **10-mavzu. Yog'larni qadoqlash bo'yicha ishlab chiqarish hisoboti.**

**Reja.** Qadoqlashdagi yog' sarfi me'yorlash kartasi (35-shakl) bilan rasmiylashtirish. bakni tozalash haqida dalolatnomasi. KIRIM ORDERI. soapstok yoki boshqa yog'li xomashyoni qabul qilishda kamomad to'g'risida dalolatnoma. xomashyoni ishlab chiqarishga berish haqida limit-me'yor karta. Tovar baklarini (sig'imlarini) inventarlash (tozalash) bo'yicha dalolatnomasi

Yog'larni qadoqlash bo'yicha ishlab chiqarish hisoboti har oyda tuziladi va unda har bir yog' turi aloxida ko'rsatiladi.

Yordamchi materiallar tara va tara materiallari to'liq nomi bilan ko'rsatiladi. Korxonani o'zida ishlab chiqarilgan yog'larni qadoqlashda yog' ombordagi tayyor maxsulot hisobidan qadoqlash sexi hisobiga o'tkaziladi. Qadoqlashdagi yog' sarfi me'yorlash kartasi (35-shakl) bilan rasmiylashtiriladi. Tayyor maxsulotni ishlab chiqarishdan omborga uzatish 36-shakldagi dalolatnoma bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Yog'larni qadoqlash bo'yicha ishlab chiqarish hisoboti 39-shakl ko'rinishida taqdim etiladi.

(korxona nomi)

## TASDIQLAYMAN:

Rahbar \_\_\_\_\_  
«\_\_\_\_\_» 200 \_\_\_\_ y.\_\_\_\_\_ raqamli bakni tozalash haqida  
DALOLATNOMA

«\_\_\_\_\_» 200 \_\_\_\_ y.dagi \_\_\_\_\_ raqamli buyruq bilan tuzilgan quyidagi tarkibdagi komissiya \_\_\_\_\_

---



---



---



---



---



---

\_\_\_\_\_ bakini tozalashni amalga  
(xomashyo, mahsulot, chiqindi nomi)oshirdi, bunda \_\_\_\_\_ kg fuza (soapstok) borligini aniqlandi.  
(so'z bilan)

Laboratoriya tahlillariga muvofiq uni tarkibida quyidagilar bor:

a) yog' \_\_\_\_\_ % \_\_\_\_\_ kg  
(so'z bilan)b) massa bo'yicha cho'kma \_\_\_\_\_ % \_\_\_\_\_ kg  
(so'z bilan)v) namligi \_\_\_\_\_ % \_\_\_\_\_ kg  
(so'z bilan)g) yog' hisobidagi soapstok og'irligi \_\_\_\_\_ kg  
(so'z bilan)

Komissiya raisi \_\_\_\_\_

Komissiya a'zolari \_\_\_\_\_

---



---

Izoh: bakni tozalashda laboratoriya ma'lumotlariga asosan yog' og'irligi, umumiylig'i miqdori va undagi namlik miqdori ham hisobga olinadi.

---

35<sup>a</sup>-shakl  
(korxona nomi)

\_\_\_\_\_ dan soapstokni va  
(ta'minlovchi korxona nomi)  
boshqa yog'li xomashyoni qabul qilish

#### KIRIM ORDERI

«\_\_\_\_\_»\_\_\_\_\_ 200\_\_ y.

T.r	Yog'li xomashyo va soapstok nomi	Miqdori, t	Bir tonnani narxi	Summa	Yog' hisobi- dagi miq- dori, t	Izoh

Sifat ko'rsatkichlari:  
Umumiy yog' miqdori, %  
Massa bo'yicha cho'kma, %  
Namlik, %  
Soapstok massasidagi yog' kislota  
va yog' bo'limgan moddalar  
miqdori, %, kam emas

Yog' kislotalarining  
massa ulushi, %, ortiq emas

Topshirdi: \_\_\_\_\_  
(ta'minlovchi vakilini f.i.o.)

Qabul qildi: \_\_\_\_\_  
(qabul qiluvchini f.i.o.)

(korxona nomi)

\_\_\_\_\_ dan soapstok yoki  
 (ta'minlovchi korxona nomi)

boshqa yog'li xomashyoni qabul qilishda kamomad to'g'risida  
 DALOLATNOMA

Komissiya quyidagi tarkibda, ombor mudiri \_\_\_\_\_  
 qabul-qiluvchi-tarozibon \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 200 \_\_\_\_ y dagi \_\_\_\_\_ sonli guvohnoma asosida ish yurituvchi  
 ekspeditor \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ -sonli yuk xati bo'yicha

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 200 \_\_\_\_ y dagi \_\_\_\_\_ -sonli hisob varag'i bo'yicha \_\_\_\_\_  
 (ta'minlovchi nomi)

stansiyasidan \_\_\_\_\_  
 (qabul qiluvchi nomi)

manzilga \_\_\_\_\_ qabul qilishni  
 (yog'li xomashyo yoki soapstok nomi)

o'tkazishdi.

Yuk xati raqami	Avtomas hina yoki vagon raqami	Yog'li xom- ashyo, soaps- tok nomi	Miqdori						Natija	
			ta'minlovchi hujjatlari bo'yicha			amalda aniqlandi			Kam- omad, kg	ortiqch a miq- dor, kg
			brutto, kg	tara, kg	net- to, kg	brut-to, kg	tara, kg	net- to, kg		

Izoh: Yuk tekshirilgan tarozilarda qayta tortiladi.

Komissiya: 1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

3. \_\_\_\_\_

## 35-shakl

(korxona nomi)

sonli xomashyoni ishlab chiqarishga berish haqida

LIMIT-ME'YoR KARTA

da qabul qilindi.

qabul qiluvchi sex \_\_\_\_\_

Operasiya turi	Qabul qiluvchi sex	Jo'natuvchi ombor	Harajat shifri

Nomlanishi	O'lchov birligi	Limit « »	Hisob narxi
		200 y.	

Bosh muhandis:

Rejalashtirish bo'limi boshlig'i:

Haqiqatda chiqarib yuborildi:

oy kuni	Urug'	Natural, og' irligi, kg	raqamlar		Laboratoriya tahlili bo'yicha						Vazni, kg		O'sib borayotgan yig'indi bilan jami chiqarib yuborilgan, kg	Topshirdi	Qabul qildi	
			Tortilmalar	Tahillar	Namlik	Cho' kma	Kislota soni	% da	kg	Cho' kma vazni bo' yicha	yog' namlik va cho' kmasisiz	yog' kislotalari	Yog'			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17

Jami oy davomida \_\_\_\_\_

Ombor mudiri: \_\_\_\_\_

Sex boshlig'i: \_\_\_\_\_

(oyning oxirgi kunida so'z bilan)  
Lab.mudiri \_\_\_\_\_

## «Tasdiqlayman»

Rahbar\_

« »

200 y.

Tovar baklarini (sig'imiralarini) inventarlash (tozalash) bo'yicha

## DALOLATNOMA

TILXAT

Inventarlash o'tkazish boshlangunga qadar, mening javobgarligimga kelgan barcha tovar-material boyliklarini kirim va chiqim hujjatlari kirim qilingan, chiqarib yuborilganlari esa chiqimiga hisoblangan.

Oxirgi hujjatlar: kirim bo'yicha \_\_\_\_\_ raqamli  
chiqim bo'yicha \_\_\_\_\_ raqamli

## Moddiy-javobgar shaxs:

(vazifasi)

(f.i.o.)

(imzo)

« » 200 v.

Rahbar ning dagi raqamli

buyrug'i asosida tayinlangan, tarkibida rais \_\_\_\_\_ va  
a'zolar

ombor mudiri \_\_\_\_\_ ishtirokida \_\_\_\_\_ bo'lgan komissiya,  
(yog' nomi)

(yog' nomi) inventarlash va operativa tekshiruvini o'tkazishdi va quridagilar aniqlandi;

Inventarlash va operasiya tekshiruvlari o'tkazilishi va quyidagi haqda alyanlandi:

T.r.	Oldingi tozalash (inventarlash) vaqtidan keyingi aylanma	Namlik cho'kma-siz yog' massasi, kg
1	2	3
1.	Qoldiq_____200_y.ga	
2.	Kirim_____200 y.dan	
3.	Qoldiq bilan jami (1+2)	
4.	Chiqim (fuzani hisobdan chiqarmasdan)	
5.	Qayta tortish bo'yicha qoldiq_____200 y. dan_____200 y.gacha	
6.	Jami (4+5)	
7.	Kirim va chiqim orasidagi farq (3-6) (-kamomad, +ortiqcha miqdor)	
8.	Oraliq tozalash dalolatnomalari bo'yicha hisobdan chiqarilgan fuza (16-shakl)	
9.	Tozalash natijjalari (7-8) (+ortiqcha miqdor, -kamomad)	

1	2	3
10	Massani kamayishi ilova qilingan hisob bo'yicha saqlashda, haydash va chiqarib yuborishda sodir bo'ladigan yo'qotishlar bilan isbotlanadi.	
11	Oqlanmaydi: kamomad ortiqcha miqdor	

Ortiqcha miqdor yoki kamomad sabablarini tushuntirish\_\_\_\_\_

Moddiy-javobgar shaxs\_\_\_\_\_ (imzo)

Komissiya xulosasi\_\_\_\_\_

Imzolar\_\_\_\_\_

Korxona rahbarini farmoyishi\_\_\_\_\_

Imzo\_\_\_\_\_

Ushbu dalolatnomada\_\_\_\_\_raqamdan\_\_\_\_\_raqamgacha namlangan hamma tovarlar mening ishtirokimda tekshirildi va shuning uchun inventarlash komissiyasiga hyech qanday e'tirozim yo'q.

Dalolatnomada ro'yxati berilgan hamma tovarlar mening moddiy javobgarligimda saqlanmoqda.

Moddiy-javobgar shaxs

«\_\_\_\_»\_\_\_\_\_200\_\_\_\_y.

Ushbu dalolatnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarni va hisoblashlarni tekshirdim:

«\_\_\_\_»\_\_\_\_\_200\_\_\_\_y. \_\_\_\_\_(vazifasi) \_\_\_\_\_(imzo)

Inventarlash va tovar baklarini tozalash dalolatnomasi komissiya tomonidan moddiy-javobgar shaxs ishtirokida tuziladi.

Bu dalolatnomani tuzishda, oraliq tozalash dalolatnomalari (27<sup>a</sup>-shakl), tayyor va oraliq ma'lumotlar, yog'li xomashyo va qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini hisobini yuritish kitobi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Yog'lar og'irligining me'yor chegarasida kamayishining hisob-kitobi, dalolatnomaga ilova qilinadi.

Dalolatnomasi ikki nusxada tuziladi: dalolatnomaning bir nusxasi hisobot davrida hisobxonaga topshiriladi.

Tayyor va oraliq mahsulotlarni va qaytariladigan  
ishlab chikarish chiqindilarini omborga  
qabul qilishdagi \_\_\_\_\_ sonli

### DALOLATNOMA

(netto og'irligi, kg)

Tr.	Nomi va navi	Tara			Natura og'irligi, kg	Tahlil ma'lumotlari					Yog' hisobidagi	Izoh
		turi	miqdori	bitta joy og'irligi, kg		tahlil raqami	namlik	cho'kma miqdori				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	14

Topshirdi: sex boshlig'i –

Qabul qildi: ombor mudiri –

Tayyor va oraliq mahsulotlar va qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini omborga qabul qilish dalolatnomasi ikki nusxada tortilmalar kitobidagi (8-shakl) yozuvlar asosida va atirsovun uchun spesifikasiya bo'yicha tuziladi va hisobot vaqtida tegishli ombor mudirlari tomonidan hisobot bo'limiga taqdim etiladi (33-shakl). Dalolatnomaning ikkinchi nusxasi omborda qoladi.

Margarin mahsulotlari uchun 41-shakl bo'yicha qabul qilish dalolatnomasi tuziladi.

Sovunni sexdan korxona tomonidan to'g'ridan-to'g'ri bazaga topshirishda ushbu dalolatnomalama tuziladi (unda 7,8,9,10,11,12-ustunlar to'ldirilmaydi).

Atirsovuni uchun 4 va 6-ustunlar spesifikasiyadagi 3 va 5-ustunlarga teng bo'lishi kerak.

12-ustun, 6-ustun ko'rsatkichidan 9 va 11-ustunlar ko'rsatkichlarini olib tashlash yo'li bilan to'ldiriladi.

Sovunni omborga yog'och yashiklarda qabul qilganda, dalolatnomada (36-shakl) izohda 4-ustunda quyidagicha ma'lumot keltiriladi:

Shu jumladan: yangi yashiklar-.....ta  
tuzatilgan yashiklar-.....ta  
inventar yashiklar-.....ta

Bu dalolatnomaning ma'lumotlari idishlarni (yashiklarni) tara sexidan hisobdan chiqarib sovunni qadoqlash sexiga o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Hisoblagichni aylanish ko'rsatkichi 13-ustun bo'yicha ko'rsatiladi.

## TASDIQLAYMAN:

Rahbar \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 200 y.

(korxona nomi)

Yog'ni qadoqlash bo'yicha «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 200 y. uchun

## IShLAB ChIQARISH HISOBOTI

T.r.	Xomashyo,material va tara nomi	O' Ichov birligi	Narxi	Oyning boshidagi qoldiq	Kirim	Qadoqlashga	Ishlab chiqarishga sarf qilindi				Boshqa sarflar		Qoldiq		Me'yord an chetga og'ish -iqtisod +ortiqcha sarf		Chetga og'ishlar shifrlari	
							yo'qotish		jami (7+9 ust.)		miqdori	summasi	miqdori	summasi	miqdori	Summasi	Miqdori	Summa-si
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
Yog'lar:																		
	Rafinasiyalangan yog', kg																	
	salat yog'i, kg																	
yordamchi materiallar:																		
	Yorliqlar																	
	alyumin folgasi, kg																	
	dekstrin kg																	
	filtr mato																	

Me'yorlardan chetga og'ish sabablari qilindi.

Hisobot \_\_\_\_\_ xujjalalar ilovasi bilan tekshirildi va qabul

Sex boshlig'i

Hisobchi:

## **11-mavzu. Soapstokni ishlab chiqarish va qayta ishlashning hisobini yuritish**

**Reja.** Soapstokni omborga topshirish 36-shakl bo'yicha dalolatnomaga bilan rasmiylashtirish. **Soapstokni saqlashning o'rtacha muddatini aniqlash tartibi.** Yog'ni ishlab chiqarishga uzatish tortilmalar kitobi asosida har kuni belgilangan me'yorni kartasi. mahsulotni ombordan ishlab chiqarishga berishga yuk xati. Hisobotlar. Kvitanсиya.

Yog' va moylarni rafinasiyasi natijasida hosil bo'lgan soapstokni qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindisi hisoblanadi va natural hamda yog' hisobidagi og'irligi bo'yicha hisobga olinadi. Soapstokni omborga topshirish 36-shakl bo'yicha dalolatnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Soapstokni qayta ishlashning keyingi bosqichlari (distillyasiya, sovun pishirish va hokazo)ga berilganda rasmiylashtirish limit me'yorni kartasi (39-shakl) asosida olib boriladi.

Agar soapstok korxonaning o'zida rafinasiyalashda olinsa va, shu korxonada keyinchalik qayta ishlash, uchun berilsa u yalpi hamda tovar mahsulot tarkibiga kiritilmaydi.

Sig'implarni tozalash va inventarlashda, soapstokni saqlash davrida kamayish sodir bo'lganligi aniqlansa, bu hol soapstokni saqlash uchun belgilangan tabiiy kamayish me'yorlari bo'yicha asoslanadi.

Soapstokni saqlash davrida tabiiy kamayishning foizdagi me'yorlari quyidagicha hisoblanadi:

Soapstokni saqlash 3 oygacha bo'lganda muddati quyidagi formula bilan:

$$X = \frac{ax\delta}{90}$$

Soapstokni o'rtacha saqlash muddati 6 oygacha bo'lganda quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$X = \frac{ax\delta}{180}$$

bu yerda: a – soapstokni 3 va 6 oygacha saqlashda kamayish me'yori, % hisobida.

b-kun hisobidagi o'rtacha saqlash muddati

### **Soapstokni saqlashning o'rtacha muddatini aniqlash tartibi.**

Kun hisobidagi o'rtacha saqlash muddati, hisoblangan umumiy qoldiq miqdorini umumiy kirim yig'indisi va davr boshidagi qoldiq hajmiga (agar shunday hol bo'lsa) bo'lish bilan topiladi. Oy hisobidagi o'rtacha saqlash muddatini aniqlash uchun kun hisobidagi o'rtacha saqlash muddati 30 ga bo'linadi. Hisobga olish yog' hisobida olib boriladi.

Misol: Operasiya 2003 yilning 1 yanvaridan 31 martigacha davom etgan.

Saqlash davri	Kirim, kg	Chiqim, kg	Qoldiq, kg	Saqlash kunlari	Hisoblangan qoldiq miqdori
1	2	3	4	5	6
1.01.2003yil-dagi qoldiq	20068	-	-	-	-
Yanvar	64856	56945	29979	31	867349
Fevral	107187	119756	15410	28	431480

1	2	3	4	5	6
Mart	107152	105480	17082 o'lchanganda-gi haqiqiy qoldiq 17010 kg kamomad 72 kg	31	529542
Jami	299263	282181	-	90	1828371

Hisoblangan qoldiq miqdorining kirim hajmiga nisbat bo'yicha kun hisobidagi o'rtacha saqlash muddati topiladi:

1828371:299263=6,11 kun.

Soapstokning foizdagi tabiiy kamayish me'yorini hisoblash amaldagi tabiiy kamayish me'yorlari asosida olib boriladi (2-ilovaga qaralsin).

Soapstokni o'rtacha saqlash muddati 3 oygacha bo'lganda %-dagi tabiiy kamayish me'yor miqdori soapstokdagi yog' massasiga nisbatan 0,95% ni tashkil etadi.

$$X = \frac{0,95 \times 6,11}{90} = 0,064\% \text{ eku} \quad \frac{0,064 \times 29923}{100} = 191,53 \text{ kg}$$

Bizning misolimizdagi 72 kg kamomad to'la qoplanadi.

Baklarni tozalash dalolatnomalari (27<sup>a</sup>-shakl) asosida 27-shakl bo'yicha baklar (sig'implar)ni inventarlash dalolatnomasi tuziladi. Sovun pishirish uchun chetdan yoki qardosh korxonalardan soapstok keltirilganda 35<sup>a</sup>-shakl bo'yicha soapstokni qabul qilish orderi tuziladi. Soapstok yoki boshqa yog'li xom ashyoni qabul qilishdagi kamomad, dalolatnoma (35<sup>b</sup>-shakl) bo'yicha rasmiylashtiriladi. Maxsulotni ombordan ishlab chiqarishga berish uchun, yuk xati (35<sup>v</sup>-shakl) bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Soapstokni qayta ishlashda olingan, xom va distillangan yog' kislotalari, fraksiyalashda olinadigan olein va palmitin bo'yicha, hisobotlar 49, 49a va 50 shakllar bo'yicha tuziladi.

### **Paxta salat yog'i va palmitin ishlab chiqarishni hisobini yuritish.**

Paxta salat yog'i va palmitin ishlab chiqarish sexi mustaqil tuzilishga ega bo'lgan bo'lim hisoblanadi. Rafinasiyalangan paxta yog'ini, paxta salat yog'i va palmitin ishlab chiqarish uchun berish, navi, natural og'irligi bo'yicha amalga oshiriladi. Yog'ni ishlab chiqarishga uzatish tortilmalar kitobi asosida har kuni belgilangan me'yor kartasi (35-shakl) bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Dezodorasiyalagan va dezodorasiyalangan paxta salat yog'i va palmitin ishlab chiqarishni hisobini yuritish natural og'irligi bo'yicha olib boriladi, ularning standart talablariga muvofiqligi esa laboratoriya tahlillari bilan tasdiqlanadi.

Barcha ishlab chiqarilgan yog' tarozida tortiladi. Uni tayyor mahsulot omboriga yoki yog' qadoqlash sexiga uzatish tortilmalar kitobidagi yozuvlar asosida dalolatnoma (36-shakl) bo'yicha rasmiylashtiriladi. Oy ohirida tugallanmagan ishlab chiqarishdaga yog' qoldig'i haroratni hisobga olgan holda hajmini o'lchash yo'li bilan inventarlanadi. Qoldiqni aniqlash natijalari 28-shakl bo'yicha dalolatnomada aks ettiriladi. Yog' qoldig'i – rafinasiyalangan paxta yog'i xomashyoga nisbatan qayta hisoblanadi. Salat yog'i va palmitin sexi ishlab chiqarish hisoboti (38-shakl) har oyda tuziladi.

Mahsulotni ombordan ishlab  
chiqarishga berishga

YuK XATI

---

omboridan ishlab chiqarishga  
(korxona nomi)

---

(yog'li xomashyo yoki sifatsiz mahsulot nomi)

---

(mahsulotni qayta ishlash uchun olgan sex)

---

kg miqdorda chiqarildi.

ga

Korxona laboratoriyasi tomonidan  
aniqlangan sifat ko'rsatkichlar:

Topshirdi: omor mudiri \_\_\_\_\_

Qabul qildi: sex boshlig'i \_\_\_\_\_

49-shakl

(korxona nomi)

Yog' kislotalarini distillyasiyalash sexi bo'yicha Ta  
200\_\_y.\_\_\_\_\_ oy uchun Rahbar\_\_\_\_\_

Tasdiqlayman

Rahbar

«\_\_\_\_\_» 200\_y.

HISOBOT

### DYOKning chiqishi, %

Ikkinchı gudrondagi yog' kislotalarini miqdori, %

## Sex boshlig'i:

Hisobotni tekshirdi va qabul qildi:

Hisobchi:



**SOAPSTOKNI QAYTA IShLASH SEXI BO'YICHA IShLAB ChIQARISH  
TEXNIK HISOBOTI**

ga  
uchun

T.r.	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Umumiy sarf	1 tonna uchun
1.	Xom yog' kislotalar uchun yog' hisobida soapstokni sarfi	kg		
2.	Soapstokni xom yog' kislotalari ishlab chiqarildi	kg		
3.	Soapstokni xom yog' kislotalarning chiqishi (2:1)	%		
4.	Distillyasiya uchun soapstokni xom yog' kislotalarining sarfi	kg		
5.	Soapstokning distillangan yog' kislotalari ishlab chiqarildi	kg		
6.	Soapstokning distillangan yog' kislotalarini chiqishi (5:4)	%		
7.	Gudron ishlab chiqarildi	kg		
8.	Gudronni chiqishi (7:4)	%		
9.	Soapstokni tovar xom yog' kislotalari (2-4)	kg		
10.	Soapstokni xom yog' kislotalariga sarflangan kaustik soda (2)	kg		
11.	Soapstokni xom yog' kislotalariga sarflangan sulfat kislota (2)	kg		
12.	Soapstokni xom yog' kislotalariga sarflangan osh tuzi (2)	kg		
13.	Sovun osti ishqorlarini qayta ishlashga sarflangan kaustik soda	kg		
14.	Sovun osti ishqorlarini qayta ishlashga sarflangan sulfat kislota	kg		
15.	Sovun osti ishqorlari ishlab chiqarildi	kg		

Sex boshlig'i \_\_\_\_\_  
(F.I.O. va imzo)

Reja-iqtisod bo'limi boshlig'i \_\_\_\_\_

Bosh muhandis \_\_\_\_\_

50-shakl

(korxonaning nomi)

Chorakorlik asosida yog'li urug'larni qayta ishlashga qabul qilish va evaziga beriladigan yog'li mahsulot uchun

«\_\_\_\_\_» 200 yildagi  
sonli KVITANSIYa

Topshiruvchi

(tashkilotning nomi yoki topshiruvchini familiyasi, ismi, otasining ismi)

Manzil

Xomashyo turi \_\_\_\_\_ Joy soni \_\_\_\_\_ Mahsulotni tanlash muddati \_\_\_\_\_ gacha

Qabul qilingan yog'li urug'lар og'irligi, kg		Yog'li urug' miqdori			Qayta ishlash uchun to'lov, so'm hisobida		1. Topshiruvchiga tegishli: 1. Yog' _____ kg (so'z bilan) 2. Shrot (kunjara) _____ kg	
amaldagi	Sinov	Namlik, %	Aralashmalar miqdori, %	nuqsondorlik	naqdiga	naqt pulsiz		
			begona	yog'li				

Laborant: \_\_\_\_\_  
(imzo)

Vazni, so'z bilan \_\_\_\_\_  
to'lov \_\_\_\_\_

Qabul  
Oldim: \_\_\_\_\_  
(qabul qiluvchi imzosi)  
imzosi) \_\_\_\_\_

Topshirdi: \_\_\_\_\_  
kvitansiya ruxsatnomani  
(topshiruvchi  
oldim: \_\_\_\_\_

Hisobchi:

Qayta ishlash uchun  
(so'z bilan)

Hisobni bajardi: \_\_\_\_\_  
(imzo)

Mahsulotni \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli  
ishonchnoma bo'yicha oldim

(topshiruvchining familiyasi va ismi)

Mahsulotni berdim: \_\_\_\_\_  
(ombor mudiri imzosi)

Yog'li mahsulotni berishga ruxsat etiladi:  
(xomashyo bo'limi boshlig'i)

## **12-Mavzu: Gidrogenlangan yog‘ ishlab chiqarishning hisobini yuritish. Margarin va mayonez ishlab chiqarishda qayd va hisobot**

**Reja.** Gidrogenizasiya zavodlariga kelayotgan yog‘larni hisobini yuritish belgilangan me’yor kartasi. Gidrozavod (sex) har oyda hisobxonaga ishlab chiqarish hisoboti. Tayyor va oraliq mahsulot yog‘li xomashyo va qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini hisobini yuritish kitobi. DALOLATNOMA.

Gidrogenlash jarayonining qayd va hisoboti. Yog‘li xom ashyo, materiallar, tayyor mahsulot va yog‘li chiqindilarni omborlarga joylashtirish va iste’molchilarga jo‘natish jarayonidagi kayd va hisobot.

Margarin ishlab chiqarish jarayonidagi qayd va hisobot. Mayonez ishlab chiqarish jarayonidagi qayd va hisobot. Xom ashyo, yordamchi materiallar, tayyor mahsulotlar va chiqindilarning qayd va hisoboti. Ishlab chiqarish hisobotini tuzish.

### **Gidrogenlangan yog‘ ishlab chiqarishning hisobini yuritish.**

Ishlab chiqarish tarkibida rafinasiya sexi mavjud bo’lgan hamda yog‘larni rafinasiyalash yagona texnologik oqimga kiradigan, gidrogenlash zavodlarida yog‘lar rafinasiyalashdan keyin tarozida tortilmaydi va ularni gidrogenlashga berish birlamchi hujjatlar bilan rasmiylashtirilmaydi. Gidrogenlash zavodi ishlab chiqarish hisobotida bunday hollarda yog‘larni rafinasiyalashni ichiga olgan ko’rsatkichlari aks ettiriladi.

Yog‘larni rafinasiyalash sexi mustaqil ishlab chiqarish bo’limi qilib ajratilgan korxonalarda, rafinasiyalangan yog‘lar gidrozavodlarga (natural va yog‘ hisobidagi) og’irligi bo’yicha beriladi va me’yor kartasi bilan rasmiylashtiriladi.

Gidrogenizasiya zavodlariga kelayotgan yog‘larni hisobini yuritish belgilangan me’yor kartasi (35-shakl) bo’yicha olib boriladi.

Gidrozavodda ishlab chiqarilgan salomas, plastifikasiyalanganini ham qo’shib hisobga olinib omborga natural va yog‘ hisobidagi og’irligi bo’yicha topshiriladi.

Xomashyo va tayyor maxsulotlar omchorlari mustaqil bo’lim hisoblanadi va korxona rahbari yoki uning o’rinbosariga bo’ysunadi, shuning uchun ularni gidrozavod yoki rafinasiya sexi tarkibiga qo’shishga aslo yo’l qo’yilmaydi.

Yog‘larni qayta ishlash sexlarida salomas kitobda (26-shakl) natural va yog‘ hisobidagi og’irligi bo’yicha hisobga olinadi. Bordu-yu korxonaga o’zida ishlab chiqarilgandan tashqari chetdan salomas keltirilsa, ombordagi jami salomaslarni hisobini yuritish natural va yog‘ hisobidagi og’irligi bo’yicha olib boriladi.

Yog‘larni qayta ishlashda olingan qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilari omborga beriladi yoki shu kombinatni o’zida keyinchalik qayta ishlash uchun natural va yog‘ hisobidagi og’irligi bo’yicha yuboriladi.

Salomas va qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini topshirish tortilmalar kitobidagi (8-shakl) yozuvlar asosida, dalolatnoma (36-shakl) yoki belgilangan me’yor kartasi (36-shakl) bilan rasmiylashtiriladi.

Gidrozavod (sex) har oyda hisobxonaga ishlab chiqarish hisoboti, (40-shakl) unga ilova qilib dalolatnoma (36-shakl) va belgilangan me’yor kartasi (35-shakl)ni taqdim etadi. Yog‘li xomashyo qoldiqlari, tarozida tortib yoki og’irlilik birliklariga qayta hisoblash bilan hajmini aniq o’lchab inventarlanadi va yog‘ og’irligi aniqlanadi. Inventarlash dalolatnoma (28-shakl) bilan rasmiylashtiriladi va 40-shakl bo’yicha ishlab chiqarish hisobotiga ilova qilinadi.

Tayyor va oraliq mahsulot yog'li xomashyo va qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini hisobini yuritish  
KITOBI

Qabul qilish sanasi	Kirim						Chiqim						Qoldiq				Hisobxona belgisi
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
	idish turi	joy soni	qabul qilish dalolatnomasi raqami	haqiqiy sifati bo' yicha natural og' irligi, kg	namlik va cho' kmasiz yog' ασ' irlisi ka	chiqarish sanasi	idish turi	joy soni	me' yor kartasi yoki tozalash dalolatnomasi raqami	chetga chiqarish uchun buyruq raqami storonu	haqiqiy sifati bo' yicha natural og' irligi, kg	namlik va cho' kmasiz yog'	tara turi	joy soni	haqiqiy sifati bo' yicha natural og' irligi, kg	namlik va cho' kmasiz yog'	Hisobxona belgisi

Bu kitob barcha yog'li xomashyo, tayyor va oraliq mahsulotlarini va qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini korxonaga kelishini, chetdan keltirilishini va ularni ishlab chiqarishga va chetga chiqarishni aks ettiradi.

Hisobini yuritish natural og'irlikda, cho'kmani og'irligi haqiqiy, namlik miqdori bo'yicha va namlik va cho'kmasiz yog' hisobida, har bir tayyor va oraliq mahsulotlar turi, qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilari va yog'li xomashyo uchun olib boriladi.

17-ustun yog'li xomashyo va yog'ni hisobini yuritish uchun, 16-ustun esa tayyor va oraliq mahsulotlar (sovun, salomas)ni hisobini yuritish uchun mo'ljallangan.

Bu kitob ma'lumotlaridan tozalash dalolatnomasini (27-shakl) tuzishda foydalaniladi. 26-shakl bo'yicha kitob, yog'li xomashyoni va mahsulotni qayta ishlash uchun qabul qiluvchi sex va ombor mudiri tomonidan yuritiladi. Bu kitobda, shuningdek ishlab chiqarishdan omborga qabul qilingan va keyingi qayta ishlashga yoki realizasiyaga mo'ljallangan qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilari (texnik yog', fuza va boshqalar)ni hisobi ham olib boriladi.

Yozuvlar to'g'riliği hisobxona tomonidan tekshirilib, kitobning o'ziga belgi qo'yiladi. Zarur hollarda korxona yog'li xomashyo, tayyor va oraliq mahsulotlar uchun alohida kitob yuritishi mumkin.

(korxona nomi)

TASDIQLAYMAN:

Rahbar \_\_\_\_\_  
 «\_\_\_\_\_» 200 \_\_\_\_ y.

Xomashyo, tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar, tayyor va oraliq mahsulotlar, qaytariladigan va ishlab chiqarish chiqindilarini inventarlash bo'yicha

## DALOLATNOMA

## TILXAT

Inventarlash boshlangunga qadar tovar-material boyliklarini barcha kirim va chiqim hujjatlari hisobxonaga topshirilgan va mening javobgarligimga kelgan barcha tovar-material buyumlari kirim qilingan, chiqarilganlari esa chiqim qilingan.

Oxirgi hujjatlar raqami:

kirim bo'yicha \_\_\_\_\_  
 chiqim bo'yicha \_\_\_\_\_

Moddiy – javobgar shaxslar:

\_\_\_\_\_  
 (vazifasi) \_\_\_\_\_ (f.i.o.) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
 (vazifasi) \_\_\_\_\_ (f.i.o.) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_\_» 200 \_\_\_\_ y.  
 «\_\_\_\_\_» 200 \_\_\_\_ y. dagi \_\_\_\_\_ - raqamli buyruq asosida  
 tuzilgan inventarlash komissiyasi, quyidagi tarkibda rais  
 va a'zolar \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_ bo'yicha natural qoldiqlarni inventarlashni  
 (sex, ombor va boshq)  
 o'tkazdi va «\_\_\_\_\_» 200 \_\_\_\_ y. dagi quyidagilarni holati bo'yicha  
 aniqladi:

T.r.	Nomlanishi	Saqlanish joyi	To'ldirish balandligi, sm	Sig' imlar o'lcham-lari, m <sup>3</sup>	Hajmi, m <sup>3</sup>	Harorat, °S	Solishtirma og'irlilik	Natural massa, kg	Tahlil raqami	Tahlil bo'yicha yog' miqdori, %	Namlik va cho'kmasiz yog' massasi, kg	Dastlabki xomashyo hisobidagi massa, kg
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13

Qayta ishlangan paxta chigitini o'rtacha oylik yog'liligi \_\_\_\_\_ %

Komissiya raisi:

Komissiya a'zolari:

Ushbu dalolatnomada keltirilgan \_\_\_\_\_ raqamdan \_\_\_\_\_ raqamgacha bo'lgan barcha moddiy boyliklar mening ishtirokimda natural holida tekshirildi va dalolatnomaga kiritildi, shuning uchun inventarlash komissiyasiga hyech qanday e'tirozim yo'q.

Dalolatnomada keltirilgan moddiy boyliklar, mening javobgarligimda saqlanadi.

Moddiy javobgar shaxs «\_\_\_\_\_» 200\_\_y.

Ushbu dalolatnomada ko'rsatilgan ma'lumotlar va hisoblashlarni tekshirdim «\_\_\_\_\_» 200\_\_y.

(vazifasi)

(imzo)

Inventarlash dalolatnomasi omborlarda va sexlarda oylik va yillik inventarlashni rasmiylashtirish uchun xizmat qiladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishdagi qoldiq xomashyoni, oraliq va tayyor mahsulotni, yarim tayyor mahsulot va qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini aniqlashda tarozida tortish bo'yicha amalga oshiriladi va laboratoriya ma'lumotlariga asosan yog'ning haqiqiy miqdori topiladi (kerak bo'lgan hollarda). Qoldiq xomashyoni va tugallanmagan ishlab chiqarishni, sath orqali o'lchashga faqat sexlardagi oylik inventarlash vaqtidagina ruxsat etiladi.

Bu holda sath orqali o'lchash asosida 4,5,6, va 7- ustunlar, laboratoriya ko'rsatmalari bo'yicha esa 8-ustun to'ldiriladi.

5-ustunda sig'imning o'lchamlari (eni-suratida, uzunligi-maxrajida) ko'rsatiladi.

4-ustunda suratida bakning to'lish balandligi,- maxrajida – bak balandligining har bir santimetritini qiymati beriladi.

Ombordagi qoldiqlarni va sexdagи tayyor mahsulotlarni inventarlash vaqtida 4,5,6,7 va 8 – ustunlar to'ldirilmaydi. 13-grafa tugallanmagan ishlab chiqarishni inventarlashda to'ldiriladi. Xomashyoga nisbatan qayta hisoblash (urug', yog' va b.)

laboratoriya ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Qayta hisoblash natijalari inventarlash dalolatnomasiga ilova qilinadi.

Ushbu dalolatnama tuzilayotganda paxta yog'i inventarlash uchun chigitlarning navi 2-ustunda ko'rsatiladi.

### **13-mavzu. Margarin va mayonez ishlab chiqarishni hisobga olish**

**Reja.** Yog'larni qabul qilish belgilangan me'yor kartasi. Margarin mahsulotlarini qadoqlash uchun taralarni hisobdan chiqarish (41-shakl) dalolatnomasi. Ishlab chiqarish hisoboti. Dalolatnama. Mayonez ishlab chiqarish uchun olinayotgan rafinasiyalangan, dezodorasiyalangan yog' belgilangan me'yor kartasi

#### **Margarin ishlab chiqarishni hisobini yuritish.**

Margarin zavodidagi yog'larni harakatini hisobini yuritish natural va yog' hisobidagi og'irligi bo'yicha olib boriladi. Yog'larni qabul qilish belgilangan me'yor kartasi (35-shakl) bilan rasmiylashtiriladi.

Margarin sexi (zavodi)da ishlab chiqarilgan tayyor maxsulot texnik nazorat bo'limi yoki kombinat (zavod) laboratoriysi tomonidan baholangandan so'ng , qadoqlangan holatda sifat bo'yicha qabul qilish dalolatnomasi (41-shakl) bilan omborga topshiriladi.

Agar, ishlab chiqarish shartlari bo'yicha margarin maxsulotlari, ishlab chiqarishdan chiqishi bilan laboratoriya va texnik nazorat bo'limida baholashdan oldin omborga topshirilsa, u holda qabul qilish va baholash, 41-shakl bo'yicha dalolatnama tuzilib, omborda o'tkaziladi.

TU Uz 10-102-95ga muvofiq, qadoqlangan va gofrirlangan karton qutilarga, qismlarga ajralmaydigan taxta yashiklarga, faner yashiklarga, karton yashiklarga va qadoqlanmagan holda esa turli yashiklarga, bochkalarga, sutga mo'ljallangan flyagalarga (suyuq margarin) joylangan margarin mahsulotlarini har bir turkumiga tasnif (spesifikasiya) tuzilib, dalolatnomaga (41-shakl) ilova qilinadi va uni ajralmas qismi hisoblanadi.

Mahsulotlarga tasnif DST (Tsh) talablariga mos ravishda tuziladi.

Mahsulotlarni omborda saqlash vaqtida sifati buzilgan hollarda, u natural va yog' hisobidagi og'irligi bo'yicha margarin sexiga qayta ishlashga qaytariladi (yog'ning miqdori laboratoriyyada aniqlanadi). Mahsulotni qayta ishlashga topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi va kirim qilish uchun laboratoriya tahlillarini hisobga olib uning miqdori sex (zavod) me'yor kartasiga kiritiladi. Bunday hollarda joriy oydagisi ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori, ombordan qayta ishlashga qaytarilgan miqdorga kamayadi.

Margarin mahsulotlarini qadoqlash uchun taralarni hisobdan chiqarish (41-shakl) dalolatnomasi bilan bir oyda ishlab chiqarilgan jami mahsulotga, tara turiga, har bir joyga qarab hisoblangan og'irlik bo'yicha amalga oshiriladi. Margarin sexiga mahsulotlarni qadoqlash uchun taralarni uzatish faqat taralar sexi yoki ombor orqali rasmiylashtiriladi.

Yorliq qog'ozlari sarfi bir oy davomida keltirilgan, oy boshida va oxirida inventarlash qoldiqlari asosida, hamda ishlab chiqilgan qadoqlangan mahsulotlar miqdori haqida olingan ma'lumotlarga muvofiq ravishda solishtirilib aniqlanadi.

Rafinasiya sexidan olinayotgan rafinasiyalangan (dezodorasiyalangan) yog'lar, shu bilan birga ombordan olinayotgan boshqa komponentlar (sariyog', sut, emulgator, shakar, rang beruvchi moddalar) margarin mahsulotlari uchun belgilangan reseptura me'yorlariga qat'iy rioya qilib taqsimlanadi.

Sariyog', shakar va boshqa komponentlarni ta'minlovchidan bevosita ishlab chiqarishga qabul qilish (omborni chetlab o'tib) ta'qiqlanadi.

Har oyda, hisobotdan keyingi oyning bиринчи sanasida sex sig'imlarida qolgan yog'larni haroratni hisobga olgan holda tarozida tortish yoki hajmini o'lchash bilan inventarlash qilinadi. Tugallanmagan mahsulot qoldiqlari boshlang'ich xomashyo va asosiy materiallarga qayta hisoblanadi.

Qayta hisoblash tugallanmagan mahsulot tarkibidagi yog' (sutdagi yog' ham) miqdori haqidagi laboratoriya ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Tuz, shakar va shu kabilarni miqdori haqiqiy qo'shilganiga qarab olinadi.

Margarin zavodining ishlab chiqarish hisoboti mahsulot turi bo'yicha laboratoriya tahlilining o'rtacha qiymatini hisobga olgan holda tuziladi. Agar, margarin zavodi tarkibiga rafinasiya sexi kirgan bo'lsa, rafinasiya bo'yicha hisobotdagi ma'lumotlar birlamchi xomashyodan boshlab bat afsil tuzilgan margarin zavodi ishlab chiqarish hisoboti tarkibiga kiritiladi (42-shakl).

Agar margarin zavodi yog'larni rafinasiyalangan ko'rinishda, shu yog'-moy kombinatining boshqa sexlaridan oladigan bo'lsa, u holda ishlab chiqarish hisoboti (42-shakl), ushbu rafinasiyalangan yog'larni ham qo'shib tuziladi.

Bunday hollarda rafinasiyalangan yog'lar rafinasiya qilish uchun ketgan harajatlar bilan birga, sex tannarxi bilan baholanadi.

Tara va yordamchi materiallar bo'yicha hisobot 43-shakl bo'yicha olib boriladi.

200\_y. uchun

Margarin zavodi (sexi)dan tayyor mahsulotni omborga qabul qilish haqida

## DALOLATNOMA

(kg da)

T.r	Mahsulot nomi	Nav	Sifati bo'yic ha guvox- noma	Idish (tara) turi												Jami	
				don a	netto og'ir-ligi (netto)	dona	netto og'ir-ligi	don a	netto og'ir-ligi								
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18

Ilova: - raqamli spesifikasiya

Topshirdi: Margarin sexi (zavodi) boshlig'i

Laboratoriya mudiri:

TNB boshlig'i:

Qabul qildi: omor mudiri

## **Mayonez ishlab chiqarishni hisobini yuritish.**

Mayonez ishlab chiqarish uchun olinayotgan rafinasiyalangan, dezodorasiyalangan yog' belgilangan me'yor kartasi (35-shakl) bilan rasmiylashtiriladi. Boshqa turdag'i xomashyo va materiallarni olish umumiy o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiriladi. Tayyor mayonezni omborga topshirish tasnif va sifat qabul qilish (41-shakl) dalolatnomasi bo'yicha amalga oshiriladi. Omborga topshirilayotgan mayonez tasnifi ikki nusxada, taraning preyskurator raqami bo'yicha tuziladi, bunda undagi joy miqdori kasr son bilan ko'rsatiladi (suratida-yashiklar miqdori, maxrajida esa o'sha yashiklardagi bankachalar soni). Sifat bo'yicha qabul qilish dalolatnomasi (41-shakl)da ham joylar miqdori kasr sonlarda ko'rsatiladi.

Mayonezni qadoqlash uchun bankachalar (yoki boshqa idishlar) sarfi, hisobot davridagi sifat bo'yicha qabul qilish dalolatnomasida belgilangan miqdoridan oshib ketmasligi lozim.

Me'yor chegarasida bo'lган sexdagi singan va darz ketgan bankachalar mayonez tannarxiga tegishlidir, me'yordan oshib ketsa, hisobxona hisoboti va balanslari bo'yicha o'rnatilgan tartibda hisobdan chiqariladi.

Yog'ochli va kartonli taralar, margarin ishlab chiqarishda qayd qilinadigan tartibda mahsulotga hisobdan chiqariladi.

Yorliqlar sarfi oy davomida kelib tushgan, oyning boshidagi va oxiridagi inventar qoldiqlari asosida va mayonezni bankachalarda ishlab chiqarilgan miqdorini solishtirish natijalariga muvofiq aniqlanadi.

Har oyda sexdagi va tugallanmagan ishlab chiqarishdagi xomashyo va materiallar qoldig'i, tarozida tortish yoki aniq hajmiy o'lhash orqali dalolatnomaga (28-shakl) tuzish bilan inventarlanadi.

Mayonez sexining ishlab chiqarish hisoboti 44-shakl bo'yicha tuziladi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

mayonez, preyskurator raqami, hajmiy o'lhash, me'yor kartasi, sifat, surat, maxraj,, hisobdan chiqarish, yorliq, tugallanmagan ishlab chiqarish.

## **14-mavzu. Yog' kislotalari, gliserin va xo'jalik va atirsovunlari ishlab chiqarishni hisob-kitobini yuritish. Qayta ishlab berish uchun olingan xomashyoni hisob-kitobi**

**Reja.** Yog'larni gidrolizlash va yog' kislotalari olishda qayd va hisobot. Yog'larni parchalash va glitserin ishlab chiqarishda qayd va hisobot. Xo'jalik sovuni ishlab chiqarish jarayonidagi qayd va hisobot. Atirsovun ishlab chiqarish jarayonidagi qayd va hisobot. Xom ashyo, yordamchi materiallar, tayyor mahsulotlar va chiqindilarning qayd va hisoboti. Ishlab chiqarish hisobotini tuzish

## **Yog'larni gidrolizlash, glitserib va yog' kislotalari ishlab chiqarishda qayd va hisobot**

Soapstokni qabul qilsh, saqlash va qayta ishlashda qayd va hisobot. Yog'larni gidrolizlash va yog' kislotalari olishda qayd va hisobot. Yog'larni parchalash va glitserin ishlab chiqarishda qayd va hisobot.

### **Yog' kislotalari va gliserin ishlab chiqarishni hisobini yuritish.**

Parchalashda olingan hamda boshqa korxonalardan keltirilgan gliserin va yog' kislotalari, omborga yoki keyinchalik qayta ishlashga og'irligi va sifati bo'yicha beriladi va hisobga olinadi:

a) yog' kislotalari – natural og'irligi bo'yicha va 100%li yog' kislota miqdoriga qayta hisoblangan holda (agar parchalash vasovun pishirish sexlari bitta boshliq qaramog'ida bo'lsa, u holda parchalangandan keyingi yog' kislotalarining og'irligi, hajmi va solishtirma og'irligi bo'yicha ham aniqlanishi mumkin);

b) xom gliserin – natural og'irligi va 88%li gliseringa qayta hisoblangan holda;

v) distillangan gliserin turi va nava ko'ra – natural og'irligi va 100%li gliseringa qayta hisoblangan holda;

g) distillangan yog' kislotalari – natural og'irligi bo'yicha.

Yog' kislotalarining distillyasiyasi natijasida hosil bo'lgan gudron, natural og'irligi bo'yicha hisobga olinadi.

Qurilmada ionitli smolalar bilan tozalash orqali dinamitli gliserin ishlab chiqarishda, xom gliserin 88%li gliseringa o'tkaziladi.

Sovun osti ishqori gliserin sexiga, sovun pishirish sexidan gliserin sexiga og'irligi bo'yicha, undagi gliserin miqdori (laboratoriya ma'lumotlari bo'yicha) ko'rsatilib qabul qilinadi.

Yillik va oylik inventarlash 28-shakl bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Yog' chiqindilaridan olingan yog' kislotalarini distillyasiyasi bo'yicha hisobot 49-shakl bo'yicha taqdim etiladi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

parchalash, gliserin va yog' kislotalari, distillangan gliserin, nav, gudron, dinamitli gliserin, oylik inventarlash, sovun osti ishqori.

## **Xo'jalik va atir sovunlari ishlab chirishda qayd va hisobot.**

Xo'jalik sovuni ishlab chiqarish jarayonidagi qayd va hisobot. Atir sovun ishlab chiqarish jarayonidagi qayd va hisobot. Xom ashyo, yordamchi materiallar, tayyor mahsulotlar va chiqindilarning qayd va hisoboti. Ishlab chiqarish hisobotini tuzish

### **Sovun ishlab chiqarishni hisobini yuritish.**

Omborda va sovun ishlab chiqarishda yog'li xom ashyo quyidagicha hisobga olinadi va jo'natiladi:

a) tabiiy o'simlik va hayvon yog'lari – natural og'irligi va sovunlanmaydigan moddalarni qo'shgan holda yog' hisobida va yog' kislotaladagi og'irligi bo'yicha;

b) sintetik yog' kislotalari – natural og'irligi bo'yicha va sovunlanmaydigan moddalarni hisobga olgan holda, sovunga mos fraksiyalaridagi yog' kislotalari hisobida.

Natural o'simlik va hayvon yog'laridagi (soapstokdagi yog' miqdorini hisobga olgan holda) yog' kislotalari miqdori korxona laboratoriysi tomonidan aniqlanadi.

Sintetik yog' kislotalari tarkibidagi sovun pishirishga mos fraksiyalarining miqdori ta'minlovchining sertifikati (sifat guvohnomasi) bo'yicha hisobga olinadi.

Ishlab chiqarishga jo'natilayotgan tovar holidagi sulfanol tarkibidagi natriy sulfat miqdori korxona laboratoriysi tahlili bilan aniqlanadi.

Yog'larni kontaktli usul bilan parchalashda ishlatiladigan kontaktni, omborga kirim qilishda, ishlab chiqarishga berishda, tayyor mahsulot hisobiga o'tkazishda va hisobdan chiqarishda quyidagi ko'rinishlarda hisobga olinadi:

- a) natura holida;
- b) standart holatiga nisbatan qayta hisoblangan (tarkibidagi neft sulfokislotalarni miqdori-50%).

Yog'li xomashyoni ombordan ishlab chiqarishga berish me'yor kartasi orqali rasmiylashtiriladi. Ishlab chiqarishga berilayotgan kimyoviy qo'shimchalar natural og'irligi bo'yicha va standart mahsulotga qayta hisoblash bilan hisobga olinadi. Kalsinasiyalangan soda natural og'irligi bo'yicha va 95% liga qayta hisoblash bilan, kaustik soda natural og'irligi va 92%liga qayta hisoblash bilan hisobga olinadi. Qadoqlash materiallari (karton, qog'oz) og'irligi bo'yicha hisobga olinadi.

Sovun quyidagi klassifikasiyalar bo'yicha hisobga olinadi:

- a) xo'jalik sovuni-turi va yog' kislotalarinining miqdori bo'yicha;
- b) atir sovuni-nomlanishi bo'yicha;
- v) yordamchi yuvish vositalari;
- g) tozalash vositalari;
- d) sovun kukunlari, tayoqchalari, soqol olish uchun kremlar;
- ye) sovun qirindilari: pag'asimon, tangachasimon;
- j) soch yuvish vositalari;
- z) sovunning boshqa turlari.

Atir sovunini qabul qilish va topshirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) sexni qabul qiluvchi – topshiruvchisi har smenadagi har bir konveyer bo'yicha alohida tasnif tuzadi (36-shaklga ilova), bir vaqtning o'zida tasnifga qayd qilish bilan birga topshirish kvitansiyasi (ilova qilinadigan)ni yozadi; Xuddi shunday tasnifni tayyor mahsulot ombori qabul qiluvchisi, haqiqiy – mavjud bo'lган sovun donalarini tekshirib, topshiruv kvitansiyasi bo'yicha tuzadi.

b) smena oxirida sexni qabul qiluvchi – topshiruvchisi va tayyor mahsulot ombori qabul qiluvchisi o'z yozuvlarini solishtirishadi va taniflarning orqa tomonida sovun navi va og'irligi bo'yicha ma'lumot to'ldirilganidan so'ng sovun qabul qilish-topshirishdagi tasniflarning ikkalasida ham qayd qilinganligi to'g'risida o'zar tilxatlar almashadilar;

v) atir sovunini qabul qilish va topshirish uchun smenalik tasnif asosida har kuni qabul qilish – topshirish dalolatnomasi (36-shakl) tuziladi;

g) smenani oxiridagi topshirilmagan mahsulotga sexning qabul qiluvchi – topshiruvchisi har bir konveyer bo'yicha alohida ikki nusxada tasnif tuzadi va ularning biriga ushbu mahsulotlar qoldig'ini qabul qilishda keyingi smena qabul qiluvchisi imzo qo'yadi.

Keyingi smena qabul qiluvchisi – topshiruvchisi mahsulotni topshirayotganda o’zining tasnifi (36-shakl)da qaysi smenada ishlab chiqarilgan mahsulotni omborga topshirayotganini ko’rsatib o’tadi.

Inventarlanganda sexdagi yarim tayyor mahsulotlar xomashyoga nisbatan qayta hisoblanadi.

Qayta hisoblash quyidagicha olib boriladi:

a) sovun pishirish sexi bo'yicha yarim tayyor mahsulot qoldiqlarida soda va yog' kislotalarining miqdori aniqlanadi. Sodaning miqdori sarf me'yorlari bo'yicha aniqlanadi, yog' kislotalarining umumiy mikdori, berilgan yarim tayyor mahsulotda haqiqiy foiz miqdorini ishlab chiqarish sig'implarini (pishirish qozonlari, korobkalar va b.ni) o'ta hajmiy aniqlikda 28-shakl bo'yicha inventarlash dalolatnomasini tuzish orqali hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Yog'larni namliksiz, cho'kmalarsiz va yog' kislotalarining turiga ko'ra umumiy miqdorining taqsimlanishi oxirgi sovun pishirishdagi yog' va yog' kislotalarining solishtirma og'irligi bo'yicha amalga oshiriladi.

Parchalanish jarayonida apparatdagi yog'lar, yog' va yog' kislotalari hisobida og'irligi bo'yicha hisobga olinadi. Distillyasiya jarayonida apparatdagi gliserin 88%-liga qayta hisoblanadi. Uning haqiqiy konsentrasiyasi laboratoriya tomonidan aniqlanadi.

Qoldiqlarni qayta hisoblash uchun, boshlang'ich ma'lumotlar va hisob kitoblar inventarlash dalolatnomalariga ilova qilinadi va komissiya tomonidan imzolanadi.

Ishlab chiqarish hisoboti yog'larni parchalash bo'yicha (47-shakl), gliserinni distillyasiyasi bo'yicha (48-shakl), soapstok yog' kislotalari va boshqa chiqindilar distillyasiyasi bo'yicha (49-shakl), sovun va yuvish vositalari ishlab chiqarish bo'yicha (46-shakl) alohida-alohida tuziladi.

Yog'ochli taraning tara sexidan sovun pishirish sexiga berilishi me'yor kartasi (35-shakl) bo'yicha amalga oshiriladi.

Sovunni qadoqlashdagi yog'ochli tara sarfi haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulotga tara turi (yangi, ta'mirlangan, inventarlangan) ko'rsatilgan holda har smena uchun dalolatnomasi (36-shakl) bilan rasmiylashtiriladi.

Yorliqlar sarfi oy mobaynida keltirilgan, oyni boshi va oxiridagi qoldiqlar, hamda ishlab chiqarilgan qadoqlangan mahsulotga solishtirish bilan aniqlanadi. Sovun pishirish zavodi (sexi)ning ishlab chiqarish hisoboti 46-shakl bo'yicha rasmiylashtiriladi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

yog'li xom ashyo, natural og'irlilik, fraksiya, ta'minlovchining sertifikati, sifat guvohnomasi, me'yor kartasi, qadoqlash materiallari, inventarlash dalolatnomasi.

(korxona nomi)

48- shakl

TASDIQLAYMAN:

Rahbar\_\_\_\_\_

«\_\_\_\_\_» 200 y.

200 y. uchun

GLISERIN DISTILLYASIYASI BO'YICHA ISHLAB CHIQARISH HISOBOTI

Ko'rsatkichlar	Natural og'irligi, kg	Gliserin miqdori, % da	100 % li gliserin hisobidagi og'irligi
1. Oyni boshiga xom gliserin qoldig'i			
2. Xom gliserin qabul qilindi a) o'zidan b) tashqaridan			
3. Qayta ishlangan xom gliserin			
4. Oliy navli gliserin ishlab chiqarildi			
5. Ishlab chiqarilgan dinamit gliserini			
6. Distillyasiya vaqtida xom gliserinning yo'qotilishi			
7. Tashqariga jo'natilgan xom gliserin			
8. _____ oyi uchun xom gliserin qoldig'i			

88% konsentrasiyali xom gliserinning dinamit gliserini olish uchun sarfi

«\_\_\_\_\_» konsentrasiyali xom gliserinni dinamit gliserini olish uchun sarfi \_\_\_\_\_ 88% konsentrasiyali xom gliserinning oliy navli gliserin olish uchun sarfi \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_\_» konsentrasiyali xom gliserinning oliy navli gliserin olish uchun sarfi \_\_\_\_\_

Tashqaridan keltirilgan xom gliserinni \_\_\_\_\_ %li dinamit gliserin olish uchun sarfi  
Tashqaridan keltirilgan xom gliserinni 88%li dinamit gliserini olish uchun sarfi \_\_\_\_\_ Tashqaridan keltirilgan xom gliserinni \_\_\_\_\_ konsentrasiyali oliy nav gliserin olish uchun sarfi \_\_\_\_\_

Tashqaridan keltirilgan xom gliserinni 88% konsentrasiyali oliy nav gliserin olish uchun  
sarfi \_\_\_\_\_

### **Xom ashyo, tayyor maxsulot va yordamchi materiallarning harakati.**

Nomlanishi		200 y.ga qoldiq	Kirim	Chiqim	200 y.ga qoldiq
1. Dinamitli gliserin	Natural og'irligi bo'yicha Qayta hisoblaganda				
2. Oliy navli gliserin	Natural og'irligi bo'yicha Qayta hisoblaganda				
3. Xom gliserin	Natural og'irligi bo'yicha Qayta hisoblaganda				
4. O'rtacha konsentrasiyalı shirin suv					
5. Shisha balonlar 10l.li					
6. 2ta yacheykali obreshotkalar					
7. SKO metall qopqoqlar					
8. Filtr mato					
9. Faollangan ko'mir					
10. Kaustik soda					
11. Filtr qog'oz					

200 y.

Sex boshlig'i

### **Qayta ishlab berish uchun olingan xom-ashyoni hisob-kitobi**

284. Qayta ishlab berish uchun olingan hom-ashyoni qabul qilish, ushbu nizomning 3 paragrafiga asosan amalga oshiriladi.

285. Qayta ishlab berish uchun olingan yog'li urug'larni omborga topshirish haqiqiy massasi bo'yicha amalga oshiriladi. Topshiruvchilardan yog'li urug'lar kelib tushganida, laboratoriya ularning sifatini aniqlaydi. Tahlil ma'lumotlari 55-shakl asosida kvitansiyaga yoziladi (ushbu Nizomga 55-ilova). Sifat ko'rsatkichlari ostiga laborant imzo qo'yib, kvitansiyani qabul qiluvchiga topshiradi. Qabul qiluvchi (tarozibon) netto massasini kvitansiyaga yozib, topshiruvchi bilan birga kvitansiyaga imzo qo'yadilar va keyin miqdor ko'rsatkichlarini kvitansiyalar qaydnomasi (reyestr)ga yozadi 57-shakl bo'yicha (ushbu Nizomga 57-ilova). 55-shakl (ushbu nizomga 55-ilova) bo'yicha qabul qilish kvitansiyasi topshiruvchiga buxgalteriyaga takdim etish uchun beriladi.

286. Buxgalteriya qabul qilish kvitansiyasini oxirigacha rasmiylashtiradi :

hisob-kitob qiladi, kvitansiyada topshiruvchiga berilishi kerak bo'lgan yog'li mahsulotni, 1 tonna fizik massa hisobidagi xomashyo uchun qayta ishlashga ketgan xarajat, to'lov(summa)ni belgilaydi va kvitansiyaga yozib qo'yadi.

287. Rasmiylashtirilgan kvitansiya ombor mudiri va hisobchi tomonidan imzolanadi va uchta nus'hasi topshiruvchiga qayta ishlab chiqarish uchun to'lovnii amalga oshirish va yog' mahsulotini olishi uchun beriladi, 1-chi nusxasi esa buxgalteriyada qoladi.

288. Topshiruvchilardan qabul qilingan yog' urug'lar boshqa manbalardan keltirilgan urug'lar bilan birga saqlanadi va qayta ishlandi.

289. Ishlab chiqarilgan mahsulot ham (yog', kunjara) boshqa mahsulotlar bilan birga korxona omborlarida saqlanadi.

290. Oyda bir marta, reja ishlab chiqarish bo'limi boshlig'i bosh hisobchi bilan birga qayta ishlangan, topshirilgan xomashyonini miqdoriga mos ravishda haqiqiy ishlab chiqarilgan yog' miqdorini 20 va 27-shakllardagi (ushbu Nizomning 20 va 27-ilovalar) hisob-kitob ma'lumotnomasini tuzishadi. Ma'lumotnomada buxgalteriyaga tegishli hisobot yozuvlarini amalga oshirish uchun asos sifatida topshiriladi.

291. Individuall topshiruvchilar yog'li urug'larni topshirganda, qayta ishlab bergenlik uchun hisob-kitob qayta ishlab chiqarish shartnomasiga asosan amalga oshiriladi. Olingan pul summasi kvitansiyada ko'rsatiladi.

292. Qayta ishlab bergenlik uchun pul o'tkazish yo'li bilan olingan to'lov kvitansiyaning tegishli qatorida ko'rsatiladi.

293. Kvitanсиyani va shaxsni tasdiqlovchi xujjatni (bundan tashkari, tashkilot vakili bo'lsa, ishonchnomani ham) taqdim qilgandan so'ng, qayta ishlashga qabul qilingan yog'li urug'lar uchun amalga oshirilgan bir martali to'liq to'lovi asosida, qayta ishlashga beruvchining chkvitansiyadagi tilxati ostida maxsulot berilishi amalga oshiriladi.

294. Mahsulot, yog' va shrotlar (kunjara)ni qayta ishlash uchun beruvchilarga jo'natish ulardan qayta ishlashga yog'li urug'larni qabul qilinayotgan vaqtida emas, balki turli vaqtarda bo'lsa, u xolda bunday jo'natishni rasmiylashtirish 24-shakl (ushbu Nizomga 24-ilova)dagi buyruq asosida, ulardagi «qayta ishlab berish operasiyalari bo'yicha» belgisi bilan rasmiylashtiriladi. 55-shakl (ushbu Nizomga 55-ilova)da kvitansiyadagi «mahsulotni oldim» va «mahsulotni topshirdim» yozuvlari qatoriga «topshirish \_\_\_\_-sonli buyruq bo'yicha amalga oshirildi» degan yozuv qo'yiladi, kvitansiyaning orqa tomonida esa berilgan mahsulot miqdori va topshirilmagan mahsulot qoldig'i ko'rsatiladi.

295. Qabul qiluvchi kvitansiyaning barcha nusxalariga chiqarish to'g'risida imzo qo'yadi, kvitansiya-ma'lumotnomada esa "Mahsulot topshirildi" degan shtamp

qo'yiladi.

296. Qayta ishlab berish uchun olingan yog'li urug'lar omborga qabul qilinganda ombor mudiri qayta ishlashga topshiruvchilarga tegishli bo'lган yog'li urug'larning harakati to'g'risida alohida hisobot tuzadi.

297. Qayta ishlashga topshiruvchilarga mahsulotni berilishi faqatgina qayta ishlab berish uchun tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan tartibda hisoblangan to'lov to'langanidan so'ng amalga oshiriladi.

298. Qayta ishlab berish uchun olingan xom-ashyodan olingan tayyor va oraliq mahsulotlar, davlat resurslaridan olingan xom-ashyolardan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot tarkibiga, ulgurji narx bo'yicha qo'shib hisoblanadi.

299. Korxonalarda qayta ishlashga topshirilgan mahsulotlarini ishlab chiqarilishi ularga haqiqatda berilgan yog' miqdori bo'yicha aniqlanadi.

300. Tovarga aylantirilgan yog' va kunjara miqdoriga ko'ra kerak bo'lган yog'li urug'lar miqdori quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$3 = F \frac{(100-V_f) \times (100-S_f)}{(100-V_b) \times (100-S_b)}$$

bunda:  $O_s$  - sinov massasi;  $N_x$  – haqiqiy namlik  
 $O_x$  - haqiqiy massa;  $I_x$  – haqiqiy begonalik  
 $N_b$  – bazis namlik;  $I_b$  – bazis begonalik.

44

301. Yog'-moy mahsulotlarini qaytarish, birgalikda tuzilgan shartnomalarda kelishilgan hajmlarda amalga oshiriladi.

302. Shunga asosan, chiqindi va yo'qotishlarni chegirib tashlagan holda, topshiruvchilarga tegishli mahsulot miqdori aniqlanadi. Qayta ishlab berish uchun xom-ashyo beruvchilarga tegishli mahsulot miqdorini aniqlash usuliga oid misollar ushbu Nizomga 66-ilovada keltirilgan.

303. topshiruvchilarga berilgan komponentlar va ulardan olingan yog' (salomas)ni hisob-kitobi qayta ishlashga tuzilgan shartnomada kelishiladi.

304. Qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilari (texnik yog' va boshqalar) va soapstok korxona ixtiyorida qoldiriladi. Topshirilgan xom-ashyodan ishlab chiqarilgan margarin mahsuloti, salomas va olif butunlay, amaldagi ulgurji narxda tovar mahsuloti tarkibiga qo'shiladi.

305. Buzilgan margarin mahsuloti qayta ishlashga shartnoma-huquqiy baza to'g'risidagi qonunchilik va tuzilgan shartnomalar shartlariga asosan qabul qilinadi.

306. Kislota soni 10 mg KON dan yuqori bo'lган margarin mahsuloti margarin zavodlariga qabul qilinmaydi. Pachkalardagi buzilgan margarin savdo korxonalarini tomonidan qayta ishlashga ochilgan holda (pergamentsiz) topshiriladi.

307. Margarin mahsuloti qayta ishlashga haqiqiy og'irligi va moy hisobidagi massasi bo'yicha qabul qilinadi. Buzilgan margarindagi moy miqdorini korxona laboratoriyasi aniqlaydi. Margarinni qayta ishlashga qabul qilish dalolatnama bo'yicha (18- shakl, 18- ilova) amalga oshiriladi.

308. Qayta ishlashga qabul qilingan margarin mahsulotlari korxonaga, moy sifatida kirim qilinadi.

309. Buzilgan margarin mahsulotlari evaziga sifatli mahsulot chiqarish yozma berilgan xujjat-naryadga asosan amalga oshiriladi.

310. Buzilgan margarindan ishlab chiqarilgan mahsulot to'laligicha tovar mahsulot tarkibiga kiritiladi.

## **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Kadirov Yu., Ruzibayev A. Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi. -T.: "Fan va Texnologiya". 2014. -320 b.
2. Y.Qodirov, A. Ro'ziboev "O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi". Darslik. "Cho'lpon ", Toshkent, 2014, - 317 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28-aprel 2011 yildagi 122-sonli qarori "Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar".
4. tayyor mahsulotlarni hisob kitobini yuritish bo'yicha yo'riqnomalar. Qo'llanma-T.:2004.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

- 5.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz", Toshkent. "O'zbekiston", 2017, 488 b.
- 6.Mirziyoyev Sh.M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi 48 b, T. "O'zbekiston", 2017 yil
- 7.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. 56 b. T. "O'zbekiston", 2016 yil
- 8.Yog'-moy sanoati korxonalarida xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni hisob kitobini yuritish bo'yicha yo'riqnomalar. Qo'llanma-T.:2004.-154b.
- 9.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 5-avgust 2004 yildagi 373-sonli qarori "O'zbekiston Davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyatini tashkil etish

### **Internet saytlari**

1. <http://www.ziyonet.uz>.
2. <http://www.agroportal.ru>.
3. <http://www.knigafund.ru/books>





